

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

**"Tasdiqlayman"
Pedagogika fakulteti
dekani: _____ ps.f.n. E.M.Muxtorov
"_____" 2018 yil**

Ixtisoslik: 5110900- pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishi IV kurs talabasi

HAMROYEVA MALIKA HUSEN QIZINING

**O'QUVChILARGA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING ShAKL, METOD VA
VOSITALARI
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
etildi. "Pedagogika" kafedrasi mudiri:
_____ Sh.Sh.Olimov

____ «____» ____ 2018 yil.

Ilmiy rahbar:
_____ B.Q.Xodjayev
p.f.n., dotsent

Rasmiy opponent:

Buxoro-2018 yil

“Ma’qullayman”
 Ilmiy rahbari: _____ B.Q.Xodjayev
 «____» avgust 2017 y.

“Tasdiqlayman”
 Pedagogika
 kafedra mudiri: _____ Sh.Sh.Olimov
 «____» avgust 2017 y.

BuxDU Pedagogika fakulteti bitiruvchisi **Hamroyeva Malika Husen qizining**
“O’quvchilarga ekologik tarbiya berishning shakl, metod va vositalari”
 mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borilishi lozim bo’lgan ishlar yuzasidan

TOPShIRIQLAR JADVALI

Tg’r	Ishning mazmuni	Bajarilish muddati	Natija
1.	Bitiruv malakaviy mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlanib olish, rejalarini rasmiylashtirish.	Sentyabr	ijro etildi.
2.	Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy-uslubiy materiallarni o'rganish.	Sentyabr,oktyabr,noyabr	ijro etildi.
3.	Jismoniy tarbiya muammolarini o'rganish	Oktyabr, noyabr	ijro etildi.
4.	Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish. Adabiyotlar bilan ishlash.	Sentyabr, ybahrom	ijro etildi.
5.	To'plangan materiallarni sistemalashtirish	Ybahrom	ijro etildi.
6.	Bitiruv malakaviy ishining 1-bobini tayyorlash	Fevral	ijro etildi.
7.	Bitiruv malakaviy ishining 2-bobini tayyorlash va xulosalash	Mart	ijro etildi.
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	Mart, aprel	ijro etildi.
9.	Bitiruv malakaviy ishining borishi to'g'risida kafedraga hisobot berish.	May	ijro etildi.
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish.	May	ijro etildi.
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish.	May	ijro etildi.

Ilmiy rahbar: _____ B.Q.Xodjayev

Bitiruvchi kurs talabasi: _____ Hamroyeva Malika Husen qizi

**Buxoro Davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasining 1-son
yig'ilishi bayonnomasidan
KO'CHIRMA**

Buxoro shahri

2017 yil avgust

Qatnashdilar kafedraning barcha a'zolari va
bitiruvchi kurs talabalar

KUN TARTIBI

2017-2018 o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tasdig'i.

Yig'ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri Sh.Sh.Olimov qisqacha hisobot berdi va yangi o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ro'yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus komissiya tekshirib chiqqanligini qayt etildi. Shundan keyin malakaviy bitiruv ishlari ro'yxati yig'ilish kotibi tomonidan o'qib berildi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularini taklifini yig'ilganlar qo'llab quvvatladilar.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrasining yig'ilishi

QAROR QILADI

1. Bitiruvchi kurs talabasi mavzusi **Hamroyeva Malika Husen qizining "O'quvchilarga ekologik tarbiya berishning shakl, metod va vositalari"** bitiruv malakaviy ishi etib tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi **Hamroyeva Malika Husen qizining** bitiruv malakaviy ishiga, p.f.n., dotsent **B.Q.Xodjayev** ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yigilish raisi:

Sh.Sh.Olimov

Yig'ilish kotibi:

O`Qurbanova

**Buxoro Davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasining BMI
dastlabki imoyasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishi bayonnomasidan
KO'ChIRMA**

Buxoro shahri

2017 yil may

Qatnashdilar kafedraning barcha a'zolari va
bitiruvchi kurs talabalari

KUN TARTIBI

**2016-2017 o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlarini
himoyaga tavsiya etish.**

Yig'ilishda 4-kurs talabasi **Hamroyeva Malika Husen qizining**
B.Q.Xodjayev ilmiy raxbarligida bajargan "**O'quvchilarga ekologik tarbiya berishning
shakl, metod va vositalari**" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining tugallanganligi
to'g'risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini hisobga olib, jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyoti kafedrasi
yig'ilishi.

QAROR QILADI

1. VI kurs talabasi Hamroyeva Malika Husen qizining "O'quvchilarga ekologik tarbiya
berishning shakl, metod va vositalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga tavsiya
etilsin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Hamroyeva Malika Husen qizining bitiruv malakaviy ishiga
dotsent _____ rasmiy hakam etib tayinlansin.

Yigilish raisi:

Sh.Sh.Olimov

Yigilish kotibi:

O`Qurbanova

Hamroyeva Malika Husen qizining “O’quvchilarga ekologik tarbiya berishning shakl,
metod va vositalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Mavzuning dolzarbligi _____

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi _____

Bajarilgan ishga talabaning munosabati _____

Talabaning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish
ko’nikmalari _____

Talabaning tadqiqotchilik ko’nikmalari _____

Talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi , ya’ni pedagogik topshiriqlarni yecha olishi,
mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k _____

Olingan natijalarning amaliyotga ta’lim jarayoniga qo’llash imkoniyati hamda
talabaning ixtisosligi bo'yicha beriladigan kvalifikatstiyani olishga
loyiqligi _____

Ilmiy rahbar:

p.f.n.,dotsent B.Q.Xodjayev

Hamroyeva Malika Husen qizining “O’quvchilarga ekologik tarbiya berishning shakl,
metod va vositalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
rasmiy opponent
TAQRIZI

Mavzuning dolzarbligi _____

Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi _____

Materialning mantiqiy bayon etilishi _____

Ishga oid manbalarning to’la va yetarlicha tanqidiy tahlil etilganligi _____

Ishning mustaqil bajarilganligi _____

Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to’la va to’g’ri baholanganligi _____

Xulosalarning to’liq izohlanganligi _____

Ishning amaliy ahamiyati _____

Ishdagи kamchiliklar _____

Ishning talab darajasida rasmiylashtirilishiga izoh _____

Ishning himoyaga loyiqligi _____

Rasmiy opponent:

Ilmiy Kengashning
"___" yilgi
son bayonnomasi
bilan tasdiqlangan

Buxoro davlat universiteti

fakulteti
ta`lim yo`nalishi
bitiruvchisi _____ ning
(f.i.sh.)

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning

XULOSASI

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o`rtalik maxsus ta`lim vazirligi BMIning bajarish haqidagi 31.12.98 yil 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomga asosan quyidagilarni aniqladi:

1. BMIning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor:tabiiy yo`nalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo`lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga qisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball.
2. Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyihasi bo`yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo`yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo`yicha-5 ball.
3. Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: yetarli darajada asoslangan-5 ball, etarli darajada asoslanmagan-3 ball, noaniq-2 ball.
4. Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi: aniq-7 ball, to`liq aniq emas-5 ball, aniq emas-3 ball.
5. MDI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to`la-7 ball, qisman-5 ball, yetarli emas-3 ball.
6. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to`la ishonchli emas-3 ball.
7. BMIning hulosa qismida ishlab chiqarishga tavsya bor-6 ball, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta`lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma`naviy-ma'rivi...) tavsya qilingan-5 ball, tavsya yo`q-3 ball.
8. Bitiruvchining mavzu bo`yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: aniq-8 ball, to`la anik emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.
9. Ishning ilmiylik harakteri: ilmiy tadqiqodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ harakterdan-3 ball.
10. Bitiruvchining ma'ruzasiga baho: a'lo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.
11. Berilgan savollarga javoblari: to`liq-8 ball, o`rtalik-6 ball, qoniqarli 4 ball.
12. BMIning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi: a'lo-7 ball, yaxshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.
13. BMIga ko`yligan yakuniy ball _____ Bahosi _____
Eslatma: har bir bal bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi _____

F.I.SH.imzo

A`zolari _____

F.I.SH.imzo

F.I.SH.imzo

Sana "_____" ____ 2017 y

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika fakulteti

ning

O`zlashtirishi haqida

MA`LUMOTNOMA

Talaba _____

Buxoro Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakultetida 2013-2017 yillarda o`qish davomida o`quv rejasini to`liq bajardi va quyidagi o`zlashtirishga erishdi.

"A`LO" _____

"YAXSHI" _____

"QONIQARLI" _____

Fakultet dekani:

E.M.Muxtorov

Davlat Attestatsiya Komissiyasiga

Buxoro Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti

Talaba Hamroyeva Malika Husen qiziga

“O’quvchilarga ekologik tarbiya berishning shakl, metod va vositalari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o’zlashtirishi to’g’risida ma’lumotnoma, bitiruv malakaviy ish haqida rahbar hamda kafedra yig’ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnoma ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

E.M.Muxtorov

MAVZ U: O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING ShAKL,

METOD VA VOSITALARI

1-BOB O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 O'quvchilar ekologik tarbiyasi - ijtimoiy pedagogik zaruriyat.

1.2 O'quvchilar ekologik tarbiyasiga yo'naltirilgan yondashuvlarning tarixiy ildizlari.

2-BOB O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING PEDAGOGIK ShART-ShAROITLARI.

2.1 Maktablarda tabiatni muxofaza kilish ekologik tarbiyaning muhim sharti sifatida

2.2 O'quvchilarda ekologik ta'lif tarbiya berishda pedagogik texnologiyadan foydalanishning shart sharoitlari

3-BOB O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING AMALIY ASOSLARI.

3.1. O'quvchilarda ekologik tarbiya berishning tashkiliy-metodik yo'nalishlari.

3.2 O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda tajriba-sinov ishlari va uning samaradorlik darajasi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar.

KIRISH

Muammoning dolzarblii. Fuqoralik jamiyatini rivojlantirish, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish sohalarida ro'y bergan tub o'zgarishlar o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishni va islohatlarda faol ishtirok etishini talab qiladi. Jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan tezkor sur'atdagi rivoji tabiat va jamiyat munosobotlarining uyg'unligini ta'minlashni taqoza qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalari ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, global, regional va lokal darajadagi ekologik muammolarning yuzaga kelganligidir. Ekologik inqirozlar ijtimoiy-tabiiy muammolar sirasida o'zining dolzarblii va geografik ko'lamiga ko'ra umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Globollashuv davrning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ekologik muammolarning keskinlashuvi, mintaqaviy ekologik masalalarning murakkabligidir. Shuning uchun ham o'quvchilar ongida ekologik madaniyatning yangicha mazmuni, uning ma'naviy-axloqiy tamoyillari, tabiatga mas'uliyatli yondashuv, tabiiy boyliklarni saqlash, ulardan oqilona foydalanish hamda flora va faunani boyitishga oid tushunchalarni shakllantirish muammosining ijobiy echimini topish ruhida, ularning ekologik tarbiyasi va ekologik madaniyatini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik kafolatdan biri sanaladi.

Hozirgi zamondagi pedagogik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, tabiat insoniyat uchun nafaqat iste'mol manbai, balki uning ma'naviyatini o'stirish, estetik dunyoqarashini tarbiyalash, integratsiyalashgan ekologik madaniyatini shakillanishining muhim omili hamdir. Shu sababli tabiatning sofligini saqlash, uning unsurlarini boyitish, qo'riqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimini muntazam takomillashtirish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolini kafolatlabgina qolmay, shu bilan birga kelgusi avlodning ma'naviy kamolotini, shu jumladan ta'lim vositalari orqali o'quvchilarda integratsiyalashgan ekologik madaniyatini ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu o'rinda tabiatning insoniyat hayotiga faol ta'sirini quyidagicha ifodalaydi: "Buningi kunda barchamizning oldimizda g'oyat muhim vazifa turibdi. Bu - tabiatni hozirgi va kelajak avlod uchun saqlab qolish, uni bizning mintaqamiz va boshqa mintaqalar

aholisining turmush sharoiti va tabiatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada murakkablashtiradigan yangi xavfli loyihalardan asrashdan iborat¹”.

Ta’kidlash lozimki, O’zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash davrida ekologik harakatning vujudga kelganligi va ushbu ekologik harakat vakillaridan 15 nafari Oliy majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganligi, ekologiya sohasidagi qonunlar tizimining takomillashayotganligi, ushbu yo’nalishdagi yangi qonunlar loyihalarining ishlab chiqilayotganligi jamiyatimiz a’zolari, jumladan, o’quvchilar ekologik tarbiyasi muommosining dolzarbligidan, bitiruv malakaviy ishning ilmiy - amaliy ahamiyatidan darak beradi. “Ekologiya (yun. oikos – uy, turar joy va ... logiya) – organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populyatsiyalar; biotsenozlar; biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o’rganadigan biologik fanlar majmui. Ekologiyani organizmlar va ular atrof – muhit o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni o’rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi”.¹

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII – XIX yillarni qamrab oladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tadqiqotchi – olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqlisa iqlimning kishi organizmlariga ta’sirini o’rganishi natijasida bu fanga bo’lgan e’tibor yanada kuchaydi.

O’zbek xalqining boy ma’naviy-madaniy merosi, milliy qadriyatlar o’quvchilarda eng oliy insoniy sifatlarni, shu jumladan ularni ekologik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O’zbekistonlik mutafakkirlar, pedagog olimlarning jahon ilm-fani rivojini ta’milagan ekologik ilmiy xulosalari, o’zining pedagogik (ta’limiy-tarbiyaviy) mohiyatiga ko’ra milliy qadriyatlar orasida alohida o’rin tutadi. Ular tomonidan ilgari surilgan hamda asrlar davomida o’quvchilarda atrof-muhitga to’g’ri munosabatni tarbiyalash, tabiat muhofazasi uchun mas’uliyat hissini shakllantirishga yordam beruvchi ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanish bugungi kunda ham ekologik ta’lim-tarbiyaning samarali bo’lishi uchun va o’quvchilarda global ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim g’oyaviy asos sanaladi.

¹ Каримов И.А.”Ўрта Осиёнинг трансчегаравий экологик муаммолари: уларни ҳал этишда ҳалқаро ҳуқуқ механизмларини кўллаш” мавзусидаги ҳалқаро конференция иштирокчиларига.// Ўзбекистон овози. 2010 йил 18 ноябр.

¹ Педагогик атамалар лугати. – Тошкент, Фан. 2008.

O'quvchilarga ilmiy asoslangan fanlar integratsiyasi dorasida ekologik bilimlarni berish, ularning O'quvchilik davrida tabiat va atrof-muhitga mas'uliyatli yondashish ko'nikma va malakalarini oshirishda alohida o'rin tutishini hisobga olgan holda bakalavrilar o'rganadigan fanlar o'quv materiallarini mazmunan ekologiyaga oid materialar bilan chuqur boyitishga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim jarayonida yoshlarni, ular orqali o'quvchilarni ekologiyaga oid ta'limotlar bilan tanishtirish ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi, shuningdek, ekologik yo'nalishdagi milliy-ma'naviy qadriyatlar mohiyatini chuqur anglashlari, o'rganishlari uchun imkoniyat yaratdi.

Bitiruv malakaviy ishning ishlanganlik darajasi: Tabiatga munosabat, uni asrab-avaylash, tabiat va inson uyg'unligi, insonning tabiatni tushunish va idrok qilishga bo'lgan faoliyati masalalarini Sharq mutafakkir-olimlari, jumladan : Abu Nasr Forobi, Abu ali Ibn Sino, al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Ulug'bek, A.Navoiy, Muhammad Zahreddin Bobur, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Fitrat, A.Avloniy va boshqalar o'z asarlari mazmunida bayon etganlar. G'arb falsafasida tabivatga bo'lgan munosabat, qadimgi grek mutafakkir-olimlari, Sokrat, Platon, Aristotel, Gelvetsiy, Didro, Jan Jak Russo, Ya.A.Komenskiy, E.Gekkel, rus olimlaridan M.V.Lomonosov, M.I.Pirogov, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, V.E.Raykov, N.M.Verzilin, V.M.Kerunskaya va boshqalar ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borganlar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda tabiatni muhofaza qilish va ekuologik ta'lim tarbiyaga doir Yu.Shodimetov, S.Mamashokirov, Sh.Kamolxo'jaev, JD.Xolmo'minov, E.Turdiqulov, G.Komilova va boshqalar doir tadqiqot ishlarini olib borib, risolalar chop ettirganlar.

Ushbu xulosalar tabiatni asrash, ekologik muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan ancha ilmiy-pedagogik qo'llanmalar yaratilganligi hamda o'quvchi-yoshlarning ekologik tarbiyasi muayyan darajada yoritilganligidan dalolat beradi. Ammo, o'quvchi-yoshlarning ekologik tarbiyaga oid o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishning shakl, metod va vositalarini asoslash maxsus pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqilmagan. Ushbu holat bizga bitiruv malakaviy ishning mavzusini "Ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari" deb nomlashga asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: ta’limni modernizatsiyalash sharoitida o’quvchilar ekologik tarbiyasining samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo’llarini ko’rsatish.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: xozirgi davrda umumiyl o’rta ta’lim sharoitida o’quvchilarga ekologik tarbiya berish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: o’quvchilarning ekologik tarbiyasiga oid ilmiy, nazariy qarashlardan foydalanishga imkon beruvchi pedagogik faoliyat mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning vazifalari:

- o’quvchilar ekologik tarbiyasining shart-sharoitlarini o’rganish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;
- o’quvchilarni ekologik tarbiyasida zamonaviy tarbiya usullaridan foydalanishning mavjud holatini ilmiy o’rganish;
- Bitiruv malakaviy ish natijalari asosida o’quvchilar ekologik tarbiyasining yangi zamonaviy shakl, metod va vositalarini aniqlash;
- o’quvchilar ekologik tarbiyasi samarali shakl, metod, vositalarini aniqlash orqali ularni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning metodologik asoslari:

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining ekologiyaga oid qonunlari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi borasidagi Xalqaro Konvensiya (bitim, shartnoma)lar, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul Qarorlar, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Vazirliklar va mas’ul tashkilotlarning me’yoriy yo’riqnomalari, Respublika Prezidenti asarlari, nutqlari, farmon va qarorlarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida ekologik madaniyatini shakllantirish, tabiat va atrof-muhit muhofazasi bo’yicha bayon etilgan yondashuvlar, ekologik tarbiya mazmunini yorituvchi o’quv manbalari (o’quv dasturlari, darsliklar va qo’llanmalar), xorij va respublikada pedagogik va ekologik yo’nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan g’oyalar.

Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan tashkil topgan.

1-BOB O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING NAZARIY-

METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 O'quvchilar ekologik tarbiyasi - ijtimoiy pedagogik zaruriyat.

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm – faniga, ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz. Ota – bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy merosi, milliy merosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga erishuvida buyuk ma'naviy ozuqa bo'ldi yoki ota – bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

"Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Atrof – muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf – odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinali foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa, er, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida "Suv sayli" o'tkazgan. Ota – bobolarimiz "Suv tabiat in'omi, hayot manbai", deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog' – rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan erga to'la etib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfi bo'ldi".¹

Demak, O'quvchi – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf – odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sohaga oid faoliyatları mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof – muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiy sog'lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishlikka o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy

¹ Зиёмухаммадов Б. Педагогика. Тошкент: Турон – Иқбол, 2006, - Б. 112.

ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xarosima va Nagasaki shaharlardagi bombo portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, mintaqaviy muammolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziysi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ladi. Quyida ularning ba'zilari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. O'quvchi – yoshlarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab – tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.
2. O'quvchi – yoshlarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak – atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.
3. O'quvchi – yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.
7. O'quvchi – yoshlar ongida atrof – muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
8. O'quvchi – yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. O'quvchi – yoshlarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasalari va oila o'rtasidagi umumiylilik va xususiylik.
10. O'quvchi – yoshlar ongida atrof – muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.
11. O'quvchi – yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota – ona ibrat – namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.
12. O'quvchi – yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. O'quvchi – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf – odatlarni tiklashga e'tiborni qaratish.

14. O'quvchi – yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson", "Orol madad so'raydi", "Tabiatni e'zozlaylik", "Suvni muqaddas deb bilaylik" va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyuştirish.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota – bobolarimizning azal – azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishganligini O'quvchi – yoshlar ongiga singdirish mumkin.

O'quvchi – yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda xalqimizning tabiatga munosabati: urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, Navro'z bayrami, xirmon to'yi, hovli to'yi va shu kabilarning ahamiyati katta.

O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda ularga ekologik terminlarning mohiyati hayaida quyidagi ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Ekologiya (yun. oikos – uy, turar joy va logiya - –ta'limot) – organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populyatsiyalar; biotsenozi; biogeotsenozi va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rjanadigan biologik fanlar majmui.

Ekologiya termini – 1866 yilda nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritildi va uni tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etdi.

Ekologik tarbiya – ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, O'quvchi-yoshlarda atrofdagi olamga, atrof-muhit va uning muammolari echimiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish.

Ekologik ta'lim – yoshlarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdir.

Ekologik madaniyat – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his etish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi, jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligi.

1.2 O'quvchilar ekologik tarbiyasiga yo'naltirilgan yondashuvlarning tarixiy ildizlari.

O'tmishda Markaziy Osiyo, jumladan O'rta Osiyo xalqlari o'z kelajagini bekamu-ko'st ta'minlash maqsadida, tarbiyuining barcha (aqliy, axloqiy, jismoniy, nafosat mehnat, kasb- kor va hunar egallash) turlari singari ekologik tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratishgan. Zero, koinot, zamin, hayvonot olamidagi hdisalar "Yetti mavjudot" tarzida talqin qilinib, suv, havo, olov, quyosh, tuproq, yer, yorug'lik hayotning asosiy manbai sifatida qabul qilingan.

Ma'lumki xalqimizning ma'naviyma'rifiy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etgan. Shulardan biri tabiat haqidagi fan bo'lib, unda insoniyat yashayotgan olamni muhofaza qilish, eng asosiy omil hisoblangan. Shu bois ekologik tarbiya o'tmishdagi islomgacha milliy ma'naviyat, islom mintaqasi ma'naviyati takomilida milliy madaniyat va tarbiyaning o'mnida va milliy uyg'onish davri, jaded ma'naviy-ma'rifiy hamda undan keying davrlarda ham alohida e'tiborga loyiqligi bilan xarakterlanadi. Bularni inobatga olib, o'quvchilar ekologik tarbiyasiga yondashuvlarning tarixiy ildizlarini quyidagi davrlarga ajratib tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bildik va buni jadvalda quyidagicha izohladik:

Ekologik tarbiyaga doir g'oyalar ifodalangan manbalar va ularning tarixiy taraqqiyoti.

Davrlar	Asoslovchi manbalar	Ekologik tarbiya mazmuni	Pedagogik izoh
Eng qadimgi davrlarda n VII asrgacha	Avesto	Tabiatni asrab avaylash, bolalar va yoshlarni tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash, buning uchun hayvonlar, yer, suv, havo, olov hamda o'simliklarni himoya qilish. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, yerni, suvni, kiyim-kechakni, oziq-ovqatni toza saqlash. Ko'cha-ko'yni, o'tloqzorlarni, o'simlik ekiladigan yerlarni iflos qilmaslik.	Hozirgi davrda barkamol avlod tarbiyasining tarkibiy qismlari to'g'risida gapirganda aynan shu fazilatlarga ega bo'lgan insonlarni nazarda tutamiz.
	Xalq og'zaki ijodiyoti dan	Insonga kerak bo'lgan tabiat mahsulotlarini asrash, toza tutish, tejash, tabiatga muhabbat, uning noz-ne'matlariga ehtiyyotkorlik, tozalik, ozodalikka doimo e'tibor qaratish tabiat muhofazasi uchun	Tabiatni, undagi barcha moddiy narsalarni asrash va ulardan unumli, tejab foydalanishdagi g'oyasi

		<p>kurashish, atrof-muhitni toza tutish, tabiat ne'matlarimizdan noto'g'ri foydalanganlarga, tabiat munosabat qoidalarini buzganlarga murosasiz bo'lish.</p>	ifodalanadi.
	"Qur'oni Karim" va "Xadisi Sharif"	<p>Diniy odatlar, qoidalar, me'yorlarni ijro etish orqali tabiatni muhofaza qilish, uni asrab avaylash, ne'matlaridan unumli foydalanish, suvni tejab sarflash, hayvonlardan o'z o'rnida foydalanish, pokiza yashash, pokiza ovqatlanish, hayvonlarni qasddan urmaslik, kasallanib qolsa davolash. Inson hayvonlarni (cho'chqadan tashqari) jismoniy va nafsoniy qudratini saqlash uchun yeish, xo'roz, qo'chqor va boshqa qush hayvonlarni qimor o'yini uchun urushtirmaslik. Hayvonlarni yaroqli holda minganlar, yaroqli qilib(semirtib, so'yib yeganlar).</p>	Asosan komil inson g'oyasi ilgari surilib, uning muhim assosi tabiat va undagi narsalarni asrab-avaylashga undash tavsiya etilgan.
1	2	3	4
VII asrdan XIV asrgacha bo'lgan davrda mutafakki rlar ta'limotid a ekologik tarbiyaga doir g'oyalarni ng ko'rinishi.	Abu Nasr Forobiy (873-950)	<p>... yoshlarni tarbiyalashda ularning tabiatidan kelib chiqish. Tarbiyaning tabiatga uyg'unlik qoidasi. Inson o'z tafakkuri yordamida bila oladi. Buning uchun u avvalo, o'zini o'rab turgan tabiatni, undagi insonlari o'raganishi, ularga mehr qo'yishi lozim. Tabiat hodisotlarini o'z rag'batlari asosida o'zlashtirish. Tabiatga mehr, o'ziga bo'lgan hurmatni anglatadi. "Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, o'z tabiatini, so'ligini hisobga olsin". "O'zini sevish, hurmat qilish, ona zaminni, uning tabiatini, moddiy boyliklari va ma'naviy o'gitlarini sevishdan boshlanadi".</p>	Tarbiyaning bola ruhiy xususiyatlari, tabiatiga bog'liq deb anglash. O'ziga hurmat, tabiat va uning boyliklariga hurmat demakdir. Inson vatanparvarligi o'z ona yeri, tabiatini muhofaza qilishdan, tabiatni, uning boylliklarini asrab-avaylashga qaratish degan g'oya ifodalanadi.
	Abu Rayhon Beruniy (973-1048)	<p>"Minerologiya" asarida: inson o'z aql-idroki bilan tabiatga ta'sir o'tkazib, undagi narsa va boyliklarni ijobiy tomonga o'zgartira oladi, shu bois tabiatni muhofaza qilib, o'zi uchun va atrofdagilar uchun tabiat ehsonlarini yaratish va ko'paytirish imkoniyatiga ega deb biladi. O'zining "Tahdid" asarida geografiyaga oid manzaralar, tabiat mo'jizalarini ko'paytirish</p>	Tabiat hodisalarini ijobiy o'zgartirish, shuning uchun ekologik ma'naviyatga ega bo'lish sifatlarini ifodalaydi.

		imkoniga qodirdir.	
1	Abu Ali ibn Sino (980-1037)	O'zinini “Kitob ash-shifo” asarida salomatlikni asrash uchun, tabiat boyliklarini asrab-avaylash, ulardan insof doirasida foydalanish. Badan tarbiyasida yilning fasllarini, badanning holatini hisobga olish, tabiat inomlaridan o'rinli foydalanish, buning tabiatga mehr bilan munosabatda bo'lish. Atrof-muhitni muhofaza qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish.	Tabiatga, uning inomlariga muhabbat, tabiat sog'lomligiga organism salomatligi deb bilish.
	Yusuf Xos Xojib (XI asr)	“Qutadg'u billig” asarida “Tabiatga kim bo'lsa oshno, Inson deb atagin, maqtagin uni. Tabiatdan o'zgaga keltirar u naf, Shudir sog'ligin asosi asragin”. Shoir bolalikdan boshlab, yoshlarni tabiatga oshno qilib, ularni mehnatga, o'rgatish katta baxt deb biladi.	Tabiat va ekologiyaga muhabbat uyg'otish.
2		3	4
	Amir Temur (1336-1405)	“Men har bir insonni tabiatga oshno bo'lishini, uning ne'matlaridan tejab-tergab foydalanishni odat qildim”. “Har bir insonni yerga mehr qo'yib, uni asrab-avaylar, ne'matlaridan o'rinli foydalanishni odat qilar ekan, u badavlat insondir. Chunki yerni asraganni, yer asraydi”.	Dehqonchilikda yerga mehr qo'yish, undan o'rinli foydalanish g'oyasi singdirilgan.
	Alisher Navoiy (1441-1501)	“Mahbub ul-Qulub” asarida: “Don sochuvchi dehqon yerni haydash bilan rizq yo'lini ochadi; Dehqonki, halol mehnat bilan don sochadi- undan chumolilar, qushlar, kabutarlar, insonlar rizqin ochadi; Kimki yerni xor ayladi, o'zini nochor ayladi; Dehqon sepgan urug'I evaziga meva emas-yulduz teradi. Bunday dehqon Odam Ato farzandi, balki undan rizq yeganlar-shu dehqonning farzandi-yu, uning o'zi Odam Atodir”.	Asardagi dehqonchilik kasbi, har bir insonni yerga munosabatini, tabiatga e'zozini anglatadi degan g'oyalar ekologik tarbiyaga qaratilgan.
Jadid tarbiyashunoslarifao liyatida	Abdurau f Fitrat (1886-1938) Mahmud xo'ja	Hind sayyohining qissasi asarida: “Mulla: ... suvning inson sog'ligiga foydasi bor, nainki zarari bo'lsa? Men: albatta, suv inson uchun zararli emas, lekin bu hovuzning suvi hech ham suv emas, turgan bitgani kir va ifloslikdir. Mulla: nega hammasi kir ekan? Men: bir qarang, ko'plab odamlar hovuzga	Tabiatni asrash nafaqat inson salomatligini muhofaza qilish balki, tabiat ko'rki, obodonchilik uchun ham zarur omil ekanligini

ekologik tarbiya masalalari	Behbudi y (1885-1919) Munavvar qori Abduras hidxonov (1878-1937)	tahorat qildilar, og'iz chaydilar, burunlarini yuvib tashladilar, loy oyoqlarini tozalaydilar. Agar bu sartaroshlik, samovarxonalar, kalla va baliq pishiruvchilarning chiqindilarini ham hisoblasak, har kuni taxminan yarim man(30kg) kir bu hovuzga tashlanadi”. “Yer yuzi” (“Jug’rofiya”) darsliklarida, ona yurt tabiatini bayon etish bilan, ona zaminni, uning tabiiy boyliklarini, tabiatini, bog’rog’larini sevish, e’zozlash har bir Turkistonlikning insoniy burchi ekanligi uqtiriladi.	ta’kidlash g’oyalari ilgari surilgan.
1	2	3	4
Ekologik tarbiyaning milliy qadriyatlar, boyliklarda ifodalanishi.	Navro’z umum xalq bayrami	Navro’z arafasida maydonlar, ko’chalar tartibga keltiriladi, obodonlashtiriladi. Ko’chalarda gullar, ko’chatlar o’tkaziladi, istirohat bog’lari bayram ko’rinishiga keltiriladi, daraxtlar oqlanadi, ko’chatlar o’tqaziladi. Uylar, hovlilar, maydonlar tozalanadi, bu nafaqat tozalikni tartibga keltiradi, balki tabiatdan zavqlanish, xushchaqchaq kayfiyatlar, shodumonlik baxshiyda qiladi va yoshlarda tabiat go’zalligiga go’zallik qo’shish kayfiyati shakllanadi.	Yoshlarni tabiat go’zalligidan faxrlanishga o’rgatadi. Doimo tabiatga e’tibor yaxshi kayfiyat, xushnud bo’lish kayfiyati degan fikrni uyg’otadi. Toza va ozoda yurish salomatlik, xushkayfiyat garovi ekanligini uqtiradi.
	O’zaro yordam va hasharlar	Bog’-rog’larni tartibga keltirish, ko’chatlar ekish, ularni parvarish qilishda hamjihatlik muhim omil hisoblanadi. Bog’larni (tok, anor, anjur ochish ko’pchilik, hashar yo’libilan amalga oshiriladi. Xonadonlarni tartibga keltirish, hovlilarni tozalash, ariq-zovurlarni qayta ta’mirlash ko’pchilik orqali bajariladigan ish va tabiatni go’zallashtirishning asosiy manbai va h. k.)	Tabiatni go’zallashtirish, ko’cha-hovlilarni tozalash ko’pchilik ishi degan xulosaga keltiradi va qilingan mehnat asrab-avayланади.

O’tmishdagi ajdodlarimiz tabiatni asrab-avaylash, undagi boyliklardan unumli foydalanish hususan yoshlarni tabiatga bo’lgan munosabatini yaxshilash borasida juda ko’p fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, bu masalalarni biz zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi Avesto matnlarida yoritilganligining guvohi bo’lamiz. Darhaqiqat “Avesto” madaniyati tabiat pokizaligini, muhit tozaligini targ’ib qilgan. Unga ko’ra

hayvonlar, olov, er, havo, suv va o'simliklarni himoya qiluvchi Axura Mazdo boshchiligida «Etti Mavjudot» mavjud bo'lgan, olov yoqish uchun toza va quruq o'tin ishlatilgan. Doimo yashil bo'lgan archa haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan.

Otashparastlar tabiat ifloslanishiga yo'l qo'yishmagan, shuning uchun suv, er, tuproq, havo, olov, yashash muhitini tozaligiga ahamiyat berib, hayvon va o'simlik turlarining sonini ko'paytirishga intilishgan.

Avesto koinot va zamin hodisalari paydo bo'lgan davrning kitobi, tabiat haqidagi fan: havo, suv, tuproq, yorug'lik, er yumaloq shaklda u uch okean bilan o'ralganligi haqidagi bilimlarni boyitadi. Avestoda bir qultum suv, bir hovuch tuproq, bir nafaslik havoning ham muqaddasligi ko'rsatib o'tilgan. Avestoda arning, daryolarning, bog'larning, tog'larning, sahrolarning, o'simlik va hayvonot olamining bunyod etish tarixiga oid bilimlar tizimini ham yaratgan. Avestoda bolalar yosh paytidan ko'chat o'tqazish, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, erga ishlov berishni bilishlari shart deb ko'rsatilgan.

«Avesto»da bayon etilgan tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, qadimgi kishilarning o'rtacha umri 80-90 yil, ayrim odamlar esa, yashash sharoitiga, muhitiga qarab 140 yil umr ko'rishgan.

«Avesto»da erni, suvni, xonani, badanni, kiyim-kechakni, oziq-ovqatni toza saqlash haqida fikr yuritilgan. Insonlar bandalikni keltirgandan so'ng ularni qo'yar joylarini shahar va qishloqdan yiroqda, balandlikda joylashtirish va o'rabi qo'yish uqtirilgan. Odam yoki it murdasi tekkan erda bir yilgacha ziroat ekin mumkin emas deyiladi. Inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta suvgaga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan yuvish ta'kidlangan.

«Avesto»da atrof-muhitni ko'cha-ko'yni, bo'tazorlaru- o'tloqlarni, erni iflos qilgan va uni asrab-avaylash qoidalarini buzgan shaxslarga 400 qamchi urish jazosi tayinlangan. Bundan tashqari insonlarni doimo tozalikka da'vat qilingan, har bir inson kunda bir necha marta yuz-qo'lini yuvishi, kiyim-boshini, turar joyini toza qilishi ta'kidlangan.

Shundan ma'lum bo'ladiki, Movarounnahrda tabiat muhofazasi 3 ming yillik tarixga ega ekan.

Markaziy Osiyoning o'rta va oliy maktabalarida tabiat bilan bog'liq fanlar Avesto ta'limotidan boshlanishi lozim. U o'tmishdoshlarimiz muqaddas tarixi bo'lib, hozirgacha

o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Avesto tasavvurlarimizni boyitadi, zero o'tmishni o'rjanmasdan kelajakka nazar talab bo'lmaydi. U yoshlarning ajdodlarimizga nisbatan g'urur va muhabbatini oshiradi.

Jahon tsivilizatsiyasi tarixi millionlab odamlar taqdirini hal qilishda katta ta'sirga ega bo'lgan ko'plab asarlarning guvohidir.

Qur'onning paydo bo'lishi 610-632 yillarga, ya'ni Muhammad (s.a.v.) payg'ambar asriga to'g'ri keladi.

Bu muqaddas kitobda diniy odatlarni ijro etish, huquq me'yorlari va axloq ta'limoti o'z aksini topgan. Qur'on va payg'ambar hadislari jahon adabiyotining qadimgi va buyuk yodgorliklaridan bo'lib, o'zgarishlarsiz bizgacha etib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Qur'onning ma'nosi «o'qimoq» bo'lib, arabcha «qara'a» yoki «qiroat» so'zidan olingan.

Ajdodlarning bebaho xazinasi, ma'naviyat va ma'rifat hisoblangan Qur'oni karim hozirgi shaklida 114 suradan iborat bo'lib, suralar oyatlarga taqsimlangan. Oyatlarning miqdori suralardan 3 tadan 286 gacha.

Bugungi kunda o'tmishdagi boy pedagogik meroslarimizni o'rjanish, tarixga yana bir bor nazar solishimiz, ayniqsa Qur'oni karimni o'rjanishimiz bunga asos bo'la oladi. Bu muqaddas kitobda diniy odatlarni ijro etish, huquq me'yorlarini va axloq ta'limoti o'z aksini topgan bo'lib, tabiat muhofazasi atrof-muhit haqida ham batafsil fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Baqara surasining ikkinchi bandi, yigirmanchi oyatida Olloh tomonidan olamning yaratilishi, eru osmon, havo, suv va boshqalar haqida gapiriladi. 16-surada (4-oyat) inson iste'mol etadigan va ulov sifatida foydalanadigan hayvonlar (6, 7, 8-oyatlar), odamlarni baliq bilan ta'minlaydigan dengiz haqida zikr etilgan. Shu joyda erga yomg'ir va boshqa ne'matlarni yuboradgan xudo haqida gapiriladi. 70 va 71-oyatlarda shunday deyiladi: «Asalari daraxtlarga uya qursa, mevalardan oziq olsa, gul gulobi insonlar uchun davo».

6-«An'om» (Chorpoyon) surasining 72-oyatida: «U osmonlar va erni haqqi rost yaratgan zotdir. U «Bo'l», degan kuni barcha narsa paydo bo'lur», deyilgan.

«A'rof» surasida shunday deyiladi: «Albatta Parvardigoringiz – Olloh shunday zotdirki, osmonlar va erni olti kunda yaratib, so'ngra o'z arshiga o'rnashdi. U kechani

(qorong’ilikni) shoshilgan holda quvib yurar. U quyosh, oy va yulduzlarni o’z amriga bo’ysundirilgan holda yaratdi».

Qur’onda inson tirik olamning markazi sifatida tasvirlangan. Olloh chorvani odamlarga egulik uchun va yuk tashishga (16,5-8-oyat), odamlarga ichish uchun va o’simliklarni sug’orish uchun suvni osmondan joriy qildi (16, 10).

«Al-Baqara» surasida arning yaratilishi va uning aylanishi haqida oyat mavjud (164-oyat). Pokiza ishlar bilan shug’ullanish, pokiza ovqatlanish, o’z otasiga etakchilik qilish zikr etilgan.

«Tafsiri Jalolayn»da aytiladiki, qon, cho’chqa go’shti, biron butga atab so’yilgan hayvon go’shti ta’qiqlangandir (173-oyat).

Rajab, zulqa’da, zulhijja va muharram oylarida ov qilish mumkin emasligi haqida «Al-Moida» surasida aytilgan. Agar hayvon tosh va cho’p bilan urib o’ldirilgan bo’lsa, balandlikdan tushib yoki quduqqa yiqlilib o’lsa, boshqa mol tomonidan shoxlash natijasida o’lgan bo’lsa, yoki yirtqich hayvondan qolgan go’shtni egan bo’lsa, haromdir. Agar hayvon so’yilayotgan vaqtida ko’z va dumini qimirlatsa, uning go’shti halol hisoblanadi.

«Xud» surasining 6-7-oyatlari olam haqidadir. Tafsirga ko’ra xudo suvni shamol ustida yaratdi. «Ra’d surasi». Osmonlar va er ustunga tayangandir. Tafsirda aytilishicha, uni ko’rib bo’lmaydi. U ustun addir. Oy va quyosh ham yuradi, muayyan muddatgacha biri boshqasi orqasidan. Xudo o’z mulki ishlarini idora qiladi. Ko’l va daryolar, turli hayvonlar va mevalar bari boshqasining aksidir, jumladan, achchiq va shirin, qizil va sariq, oq va qora, tun va kun, arning ba’zi qit’alari dehqonchilikka yaraydi, boshqalari esa sho’azor.

«Taho» surasining 5-6-oyatlari olam tuzilishi to’g’risida bo’lib, tafsifida olam quyidagicha tasvirlangandir: «Olam farishtalar zimmasida, farishta qadami sahra ustida va sahra sigir shoxi ustida, sigir baliq ustida, baliq esa dengizda».

«Al-nur» surasi. Oyatlarida aytilishicha, xud osmonlarning erdag'i nuri va er musulmonlar qalbida o’sha nurning dostonidir. Tafsir sharhiga ko’ra nur xudoning ismlaridan biridir.

«Yosin» surasining 30-40-oyatlarida Oy va Quyoshning Er atrofida hamda o’z o’qi atrofida aylanishi to’g’risida gapirilib, xudoning qudrati zohir bo’lishi ta’kidlanadi.

«Al-Mo”min» surasi kecha va kunduzning **xilqati**, olamda ko’payish, insonning paydo bo’lishi va boshqalar xususidadir.

«Fussilat» surasi, 9-oyatga ko’ra Er 2 kunda yaratilgan. Muhammad surasining 3-8-oyatlarida chorvaning egulik uchun ekanligi, odam o’z jismoniy va nafsoniy qudratini saqlash uchun ovqatlanish lozimligi zikr etiladi.

«Qof» surasi. «Aniqki, biz osmonlar va erni hamda ularning o’rtasidagi bor narsani olti kunda yaratdik va bizni hech qanday charchoq ushlagani yo’q».

«Ar-rahmon» surasida: «U zot osmonnni baland qilib qo’ydi va sizlar tosh tarozida tug’yonga tushmasliklaringiz uchun mezon-tarozini o’rnatdi. Erni u zot jamiiyki jonzotlar uchun past-tekis qilib qo’ydi. Bundaadolat mezoni bo’yicha amal qilishga da’vat etiladi. Olloh ikki sharqning ham, ikki g’arbning ham parvardigoridir».

«At-taloq» surasi. 12-oyatda aytiladiki, xudo etti osmonni ustma-ust yaratdi va xuddi shunday erni ham. Uning farmoni hamma mavjudotlarga qo’llaniladi.

«Luqmon» surasida quyidagicha yozilgan: «Olloh osmonlarni sizlar ko’radigan ustunlarsiz yaratib, sizlarni tebratmasligi uchun erda tog’larni barpo qildi va unda har turli jondorlarni tarqatib, yoyib yubordi. Yana biz osmondan suv-yomg’ir yog’dirib, erda har turli foydali o’simliklarni o’strib qo’ydik».

«Xud» surasidagi «Od» qavmi timsolidagi «Od» qavmi erlariga uch yil yomg’ir yog’may qurg’oqchilik bo’lib, ularning qirilib ketishiga oz qolgan. Ulardan ba’zi bir kuchli qavmlar yashashi ko’rsatib o’tilgan, «Shuar» surasidagi Nuh payg’ambarning kemasida odamlar bilan birga hayvonlar, parrandalar ham jon saqlab qolishganlari ko’rsatib o’tilgan.

Bizning davrimizda odamlar an’analarini bir muncha unutganlar, er, suv, havo va tabiatning boshqa unsurlari haqidagi tasavvurlarini qo’ldan berib qo’ydilar.

Bu shoh asarni o’rganish va kelajak egalari bo’lmish yosh avlodga o’rgatish, atrof-muhitga, tabiatga bo’lgan e’tiborni, tabiatdagi barcha jonzotlarni avaylash va asrash ekologik e’tiqod, ekologik ong va ekologik madaniyatni ko’tarishga katta yordam beradi.

Islom dini keng tarqala borishi bilan birga, asta-sekin uni nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e’tibor kuchayib bordi. Natijada, IX-X asrlarga kelib Qur’onga asoslangan maxsus islom ilmlari, ya’ni islomni turli tomonlama mustahkamlash va uni talqin etishga qaratilgan maxsus diniy ilmlar shakllana boshladi.

Masalan, Qur'onning so'nggi manbai hisoblanmish hadislar, ya'ni Muhammad payg'ambarning nasihat, so'z, rivoyatlarini to'plashga qaratilgan maxsus yo'nalish – hadisshunoslik rivojlandi. Bu jarayonda qadimiy an'analarga boy bo'lgan Markaziy Osiyodan etishib chiqqan allomalar Al-Buxoriy, at-Termizi, al-Moturidiy, Nasafiy, Al-Marg'iloni, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Yassaviy va boshqalar katta hissa qo'shdilar (R.Aminov, 2005).

Hadislar islom payg'ambari Muhammad alayhissalomning nasihatlari, hikmatli so'zlari va u haqidagi hikoyalaridan iboratdir. Hadislar asosan payg'ambar vafotidan keyin to'planib, tartibga keltirilgan.

Hadisning ma'nesi «toza», «yangi vujudga kelgan» narsani anglatadi. Unda Muhammad payg'ambarning dunyoqarashi, diniy, badiiy, ilmiy va madaniy tafakkuri in'ikos topgan.

Markaziy Osiyo jumhuriyatlarining mustaqilligi sharofati bilan hadislar turli tillarda chop etildi.

Ko'plab kishilar hadislarni to'plagan. Shuni ta'kidlash lozimki hadislarni naql qilish va undan foydalanish juda nozik ish bo'lib, yuqori mas'uliyatni talab qiladi. Bugungi kunda o'zbek xalqining o'tmishdagi boy pedagogik meroslarini, madaniyatini, urfatotlarini, ayniqsa atrof-muhitga oid bo'lgan madaniyatni o'rgatish, tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Qur'oni karim va hadislarda o'z aksini topgan ekologiyaga oid durdonalar bilan tanishtirish atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yanada yaxshilaydi. Ayniqsa, Ismoil Al-Buxoriy to'plagan va haqiqiy (sahih) ishonarli hadislarni o'rghanish zarur hisoblanadi. Bu bizning ulug' Vatandoshimiz islom olamida Sahihi Buxoriy nomi bilan mashhur bo'lgan, hozirgi vaqtida hadislarning to'rttasi kirilcha yozuvidagi o'zbek tilida chop qilingan. Baqiz Aloddin qalamiga mansub hadislardan quyidagi gaplar aytilgan:

18. Qo'y boq. Zero, u ayni barakadur.

22. Bu tilsiz hayvonlar to'g'risida Allohdan qo'rqinglar. Ularni yaroqli holda mininglar va (so'yishga) yaroqli qilib (semirtirib) (so'yib) englar.

44. Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar.

88. Qaysi joyda vabo tarqalganini eshitsang, u erga kirmanglar. Agar sizlar turgan erga tushsa undan qochib chiqmanglar.

165. Sizlarga misvoq qilishni (tish tozalashni) ko'p tayinladim.

189. Alloh taoloning o'zi go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi.

190. Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. O'zi oliyhimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiqqo'lllikni yaxshi ko'radi. Eshiklarining oldini pokiza tutinglar.

340. Hilol qilinglar, (tish, soqol, panja oralariiga barmoq tiqish).

414. Yomon hayvon bor. Ular hajda ham, tashqarida ham o'ldirilaveradi:

1. Ilon.

2. Olaqarg'a.

3. Sichqon.

4. Qutirgan it.

5. Kalxat.

436. Ot boqish kishiga xosdir.

1. Bir kishi uchun savob.

2. Boshqa birov uchun parda.

3. Yana birov uchun gunohdir.

445. Dunyo shirin va chiroylidir. Ammo undan o'z haqini olsa, u odamga baraka beriladi. Ammo qanchadan-qancha nafsga berilgan odamlar borki qiyomat kuni ularga faqat do'zax olovi nasib bo'ladi.

474. Safar qilinglar, sog'lom bo'lasizlar va rizqlanasizlar.

486. Sayyoohlар-ro'zadorlardir.

495. Misvoq tutish (og'iz tozalash) har bir kasallikka davodir (o'limdan boshqa).

542. Hovli sahnalarini toza tutinglar.

550. Ey Allohnинг bandalari! Davolaninglar, chunki Alloh taolo biror kasallikni davosiz yaratmagan, illo bir kasalliknigina davosi yo'qdir – bu qarilikdir.

551. O'n narsa insonning jismoniy tug'ma sunnati – dindir:

1. Mo'ylovni qisqartirib turmoq.

2. Soqol qo'ymoq.

3. Misvoq (tish, og'iz tozalash).

4. Burunni chayish.
5. Tirnoqlarni olmoq.
6. Kir to'planuvchi bo'g'in joylar ostini yuvmoq.
7. Qo'ltilq tukin olmoq.
8. Ostki tuklarni olmoq.
9. Mustahabdan keyin lozimga suv sepmoq.
10. Xatna.

575. Qo'y barakadir, tuya ahliga izzatdir (egasiga azizlikdir).

Otning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan yaxshilik oladi. Quling, birodaringdir, unga yaxshilik qil. Agar biror ishda qiynalib qolganini ko'rsang yordam ber.

586. Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan boshi bilan do'zaxga tashlanadi.

732. Qaysi bir musulmon ekin eksa, yoki biror daraxt o'tqazsa so'ng uning mevasidan qo'sh yoki hayvon esa, eyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.

946. Joni bor narsani o'q otishda nishon qilmanglar.

487. Yirtqichlarning go'shtlari xaromdir.

632. Ko'z oldingda otib tushurganining egin, qochirib yuborganingni (o'lgan holda keyin topib olsang) qo'y, ema! (Ovchiga aytilgan gap).

711. Tirik hayvondan kechib olingan et o'limtik (harom) hisobidadir.

837. Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shahidlik atri beriladi.

913. Olov dushmandir, undan ehtiyot bo'linglar.

957. Shamolni so'kmanglar, chunki u Allohning rahmatidan. U rahmatni ham, azobni ham olib keladi, lekin sizlar Allohdan uning yaxshiligini so'ranglar, yomonligidan panoh tilanglar.

958. Islomda hayvonning bosh bolasini qurbanlik qilish bilan irim qilish yo'qdir hamda rajab oyning boshida qurbanlik qilish ham yo'qdir.

Bundan tashqari atrof-muhitga zarar keltiruvchi kishilar haqida ba'zi bir fikrlar ham bayon etilgan. «Daraxtni kessang ko'r qilur», «Parranda ursin», «Daraxtga ko'z

olaytirma, yomon bo'ladi», «Suvga tupurma, iflos bo'ladi», «Erni toptama, u dunyoliging qolmaydi» kabi bir qancha so'zlar aytilgan.

Hadislarda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, insoniyatga zarur bo'lgan turlarning miqdorini ko'paytirish haqidagi fikrlar ifoda topgan. Yashash muhiti tozaligi va tanani toza ozoda saqlash masalalariga maxsus ahamiyat berilgan.

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san'at, falsafa va boshqa sohalarida ijod qilganlarning ismi sha'riflarini yo'qlash, qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini engil qilganda ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Shu sababli ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, olim-mutafakkirlarimiz olamga mashhur bo'lganlar. Ulardan ayrimlarining fikrlarini keltiramiz. **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning** «Arifmetika» asari boshlanishidagi quyidagi fikrni keltiramiz: «Rahimli va mehribon tangriga loyiq maqtovlar aytaylik, unga minnatdorchiligidizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqtovini oshiraylik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizniadolat sari boshlab, haqiqat yo'lidan olib borish va bizga 9 ta raqamda iborat hind hisobi haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin».¹ Ya'ni «Arifmetika oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni taklif qildim, chunki meros tadqim qilishda, vasiyatnomalarda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, er o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;

¹ Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. – Т.: «Фан», 1983. – Б. 59.

- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'llarini kashf etib borish kerak;
- ta'lim berishda mashg'ulotlarni ko'rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor bergen va u barcha illatlarning asosini **bilimsizlik** tashkil etadi, degan fikrda qat'iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifikatli bo'lishi;
- ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiya;
- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lismi.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sino – u «Shayx ur-rais», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi», nomlariga sazovor bo'lgan olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrni o'qishimiz mumkin: «Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidiga borardim va namoz o'qib, yaratguvchiga yolborardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi», deb yozgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'zining quyidagi asarlari bo'yicha ma'rifikatimiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixiga katta hissa qo'shdi:

- falsafa, tibbiyot va tabiatshunoslik sohalariga oid «Qonun fit tib» («Tib ilmlari qonuni»); «Kitob ash shifo» («Jonne saqlash kitobi»); «Kitob an-najot» («Najot kitobi»); «Kitob an-insof» («Insof kitobi») va shu kabi asarlar yaratdi;

axloqqa va ma'rifikatga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»); «Risola fi fazilat an-nafs» («Nafsni pokiza tutish haqida risola»); «Risola fi al-ahd» («Burch haqida

risola»); «Kitob an-insof» («Adolat haqida kitob») va shunga o'xshash ta'lim-tarbiyaga oid boy ma'naviy merosni kelajak avlodga qoldirdi.

Yoshlarda, shu jumladan o'quvchilar va talabalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarining ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo'lib, ularning 80 dan ortig'i tabiat va insonning unga bo'lган munosabati masalasiga bag'ishlangan².

Abu Ali ibn Sinoning tog'larning paydo bo'lishi, er yuzasidagi tabiiy jarayonlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarishiga oid g'oyalari pedagogika fanining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tashqi muhitning odamlar tanasiga ko'rsatadigan ta'siri, ular sog'ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to'g'risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan "Tib qonunlari" asarining bosh g'oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, er va havoda mo''tadillikning buzilishi bilan bog'liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo'lmasligi, yuqumli (chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zinch joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o'gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir. Mutafakkirning "Agar havoda chang va g'ubor bo'lmasligida edi, inson ming yil umr ko'rgan bo'lar edi" degan mashhur iborasi esa o'quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon etkazmaslik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Olimning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham oladi. Shuningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalar, xususan, qum, tuproq, suv va o'simliklardan foydalanish zarurligini uqtirib, zarur tavsiyalar beradi.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida bir qator kasalliklarni davolash yo'llarini ko'rsatibgina qolmay, balki jismoniy tarbiyaning salomatlikni muhofaza qilishdagi ahamiyatini ham asoslab bergen³.

²Қаранг:Хайруллаев М.М. Маънавият ўлдузлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2001. - 406 б.

³ Қаранг: Сино, Абу Али ибн. Тиб конунлари. I жилдлик сайланма /Тузувчилар: У.Каримов, Х.Хикматуллаев. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тибиёт нашриёти, 1996. – 542 б.

Alloma yoshlarda sog'liqni saqlashning eng muhim omillari sifatida quyidagilarni e'tirof etgan: 1) badan tarbiya; 2) to'g'ri ovqatlanish va dam olish; 3) etarli va samarali bo'lgan uyqu .

U badan tarbiyani kishining yoshiga, salomatligiga va kasalligiga qarab, turli usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrida kishi jismoniy mashg'ulotlarga turlicha munosabatda bo'lish kerak. Abu Ali ibn Sino: "Jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqur nafas olishiga majbur qiladigan ixtiyoriy harakat"⁴ ekanligini qayd etgan holda muntazam ravishda badan tarbiya bilan shug'ullangan kishiga dard yaqin yo'lamasligi, tabibga ham, dori-darmonga ham muhtojlik sezmasligini aytib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino jismoniy tarbiyaning turli ko'rinishlari va ulardan qanday foydalanish kerakligini ham ko'rsatib bergan. U jismoniy mashqlarni quyidagi guruhlarga bo'ladi: "Kichigi va kattasi, juda kuchli va kuchsiz, tez va sust yoki tez va shiddatli harakatlardan iborat yoxud sust turi". Alloma bolalarning badan tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun qulay bo'lgan vaqtlni ham tavsiflagan. Chunonchi, badan tarbiya uchun bahor faslida tushga yaqin vaqt qulay bo'lib, mashq o'rtacha haroratli uyda bajarilishi, yozda ertalab, qishda esa kechqurun jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqdir. Mutafakkirning fikricha, badan tarbiyasi bilan shug'ullanishda yana quyidagi shartlarga ham rioya qilish zarur: qishda uyni o'rtacha haroratda isitish, mashqlarni ovqat hazm bo'lgach amalga oshirish tibbiy jihatdan to'g'ri sanaladi.

Alloma bolalar tomonidan badan tarbiya bajarilayotgan quyidagi uch holatga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

1. Terining rangiga - agar u yaxshilana borsa, mashqlarni davom ettirish mumkin, agar ter chiqqa boshlasa, harakatni to'xtatish lozim.
2. Mashqlarning engilligiga - jismoniy mashg'ulot davomida kishi tanasi engil bo'lib tursa mashqni davom ettirish mumkin.

⁴ Қаранг: Сино, Абу Али ибн. Тиб қонунлари. III жилдлик сайланма /Тузувчилар: У.Каримов, Х.Хикматуллаев. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1996. – 418 б.

3. A'zolarning holatiga – agar ularning ko'pchishi davom etsa, mashqni davom ettirish mumkin, agar ko'rsatilgan belgilar yo'qola borsa, mashqni darhol to'xtatish kerak.

Ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning jismoniy tarbiyani samarali va uzlusiz tashkil etishga oid tavsiyalari bilan o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanishtirish va ularda jismoniy faollik, jismoniy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish ularning har tomonlama etuk bo'lib voyaga etishlariga yordam beradi.

Abu Ali Ibn Sinoning atrof muhitning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'sirlari va inson salomatligini saqlashga oid qarashlaridan pedagogikada foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning shaxsiy gigienaning ahamiyati borasidagi qarashlari o'quvchilar ta'lim tarbiyasida samara beradi. Alloma ko'mir gazining zararli xususiyatini ilmiy jihatdan tavsiflagan: "Ko'mir hidi, miqdori bilan emas zaharlilik quvvati hisobiga miyani qizdiradi, quritadi hamda uning quvvatini zaiflashtiradi", - deb ta'kidlagan.

O'zbekiston davlatchiligining asoschisi **Amir Temur** ta'limotida mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga alohida e'tibor berilgan. Sohibqiron vujudga keltirgan markazlashgan davlat o'zining iqtisodi, boshqaruv tizimiga ega bo'lган. Shu jumladan mamlakatning suv, er resurslarining ahvoli, ulardan unimli foydalanish, kelajak avlodlarga ularning tabiiy holatining buzilmasdan etkazilishiga e'tibor berilgan. Amir Temurning ekologik qarashlarini o'rganish hozirgi davr uchun ham nazariy, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Uning ekologik qarashlari yoshlar, talabalarda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik ongini o'stirish, ayniqsa bo'lajak pedagoglar ekologik tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Mamlakatda istiqomat qilgan fuqoralarning asosiy turmush manbai bo'lган tabiiy resurslarni har tomonloma muhofaza qilish davlatning ichki siyosatida alohida o'rinnegallagan. Amir Temur yozadiki, "xirojni ekindan olingan hosilga va arning unimdonligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim, uzlusiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin erlarni hisobga olsinlar va unday erlardan olingan hosildan ikki hissasini oliy sarkolik [sultanat xazinasi] uchun olsinlar. Bularidan tashqari kuzgi,

bahorgi, qishki, va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o'ziga bo'lsin”⁵ Davlat hududidagi ekologik holatga ta'sir etuvchi omillardan biri mavjud er, suv resurslarini qo'riqlash, undan unimli foydalanish bo'lgan. Shu maqsadda “har shahar va erdan olinadigan jon solig'i, kasb-hunardan olinadigan jon solig'i, kasb-hunardan hamda o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqni to'plashda qadimdan kelgan tartib qoidaga amal qilsilar”⁶deb ko'rsatma berilgan.

Amir Temur o'zining “Temur Tuziklari”da ta'kidlaydiki, “har arning tabiat, har el va shaharning rasmu odatlari, mijozidan voqif bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu-raiyat kayfiyatini, turish-turmishlarini, qilmish- qidirmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilarni voqenavislar (axborotnavis-xabarchilar) belgiladim.”⁷ Aholi turmishi uchun zarur bo'lgan, mavjud tabiiy resurslardan foydalanishda jamiyat a'zolari uchun qulay imkoniyatlar vujudga keltirish maqsadida “daryolar ustiga ko'priklar qurilgan”.⁸ Sohibqiron huziriga kelgan ispaniyalik elchi G.Klavixo o'zining “Buyuk Temir tarixi” kitobida mamlakat ekologiyasi haqida qimmatli fikrlar qoldirgan. Mullif qayd qiladiki, biz avgust oyining oxirida Kesh shahriga etib keldik. Shahar keng tekislikda joylashgan bo'lib, uni sug'orish kanallari va ariqlar kesib o'tgan. Shaharni ko'plab bog'lar o'rabi turardi. Sug'oriladigan erlarda bug'doy, uzum, paxta, qovun va mevali daraxtlar o'sgan edi. Elchi shuningdek Oqsaroy va uning atrofini tasvirlaganligi e'tiborga loyiqdир. U qayd qiladiki, saroyning oldida juda ko'p mevali va soya beruvchi daraxtlar ekilgan, saroyda ko'plab hovuzlar, favoralar mavjud bo'lgan.⁹

Movaraunnahr janubidagi ekologik vaziyatdan, shu jumladan hayvonot dunyosining boyligi haqida Amir Temurning o'zi shunday yozadi, biz Xorazm tomonga borayotib, Amu daryo bo'ylarida o'z askarlarimiz bilan bir oy to'xtadik va oziq ovqatimizni ovlash

⁵ Темур тузиклари.Т.: Фофур Ўулом номидаги нашриёт- матбаа бирлашмаси, 1991, 98- 99бет.

⁶ Ўша асар, 99 -бет.

⁷ Темур тузиклари.Т.: Фофур Ўулом номидаги нашриёт- матбаа бирлашмаси, 1991, 55 -56 бет.

⁸ Ўша ерда, 58 бет.

⁹ Каранг. Клавихо Г. История Великого Тимура. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; Гураш», 2002, с.300.

hisobiga hal qildik.¹⁰ Amir Temur davlati haqida muhim ma'lumotlar qoldirgan arab Ibn Arabshohning ma'lumotiga ko'ra o'sha davrda Xorazmning nozi ne'matlari bitmas tunganmas, tabiiy boyliklari behisob bo'lgan.¹¹ Mamlakatimiz hududlarida O'rta asrdagi ekologik xilma xillik, uning boy hayvonot dunyosi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Buyuk sarkarda sharqiy Movaraunnahrdagi harbiy yurishlardan birida men yo'lbarsni uchratdim va uni yoyda otilgan o'q bilan o'ldirdim va shu erda to'xtagan vaqtimizda askarlarni ov qilish bilan oziqlantirdik deb qayd qiladi.¹² Ekologik masalalarning davlat rahbari e'tiborida bo'lganligini yana shundan bilish mumkinki, Amir Temur tarjimai holida alohida, mening oldimdagи vazifalardan biri ushbu hududni gulzorlarga aylantirishdan iborat edi deb yozadi.¹³

Demak, Sohibqiron Amir Temurning boy tarixiy, ilmiy, madaniy merosini o'rganish uning asarlarida ekologiyaga oid qarashlarning ham yoritilganligidan dalolat beradi. Amir Temurning ekologiyaga mansub fikrlari, g'oyalari o'z mohiyatiga ko'ra tabiatning insoniyat hayotidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi ahamiyati, insonning ekologiyaga, atrof-muhitga munosabati, muhim geografik ob'ektlar, ularning xususiyatlari, ekotizim unsurlarining o'zaro uzviy bog'liqligi, tabiat hodisalari, atrof-muhitning ular yashab o'tgan davrlardagi holati va boshqa masalalardan tarkib topgan bo'lib, asrlar davomida avlodlar uchun muhim yo'riqnomalar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston o'lkasi hayotida yangi ijtimoiy-pedagogik davr boshlandi. O'lkada jadidchilikharakatlari maydonga kelib ma'rifat va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali o'lkani rivojlangan hududlar sirasiga ayoantirishga harakat qilindi. Bu ta'limot kuyidagi xarakterli xususiyatlari bilan ajralib turardi:

1. Milliy-islomiy tarbiya an'analarini rivojlangan davlatlar ta'lim-tarbiya usullari va g'oyalari bilan boyitish.

¹⁰ Қаранг. Автобиография Тамерлана. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; «Гураш», 2002, с.83.

¹¹ Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. Т.: “Шарқ”, 1997, 36 бет.

¹² , Қаранг. Автобиография Тамерлана. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; «Гураш», 2002, с.

86 .

¹³ Қаранг. Автобиография Тамерлана. В книге “Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния», М.; «Гураш», 2002, с.51.

- 2.O'qitishningalifbo usuliga o'tish va matabningdunyoviy qoidalariga qat'iy rioya qilishi.
- 3.Diniy ta'limot bilan birga dunyoviy ta'lmotni qo'shib amalga oshirish, shuningdek, islom dini manbalarini shunchapkui o'qish emas, balki tavfirlab o'rgatish.
- 4.Maktab ta'limiga turli ijtimoiy toifa vaki llarining farzandlarini jalb etish.

Jadid ma'rifatparvarlari maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonini dunyo ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uyg'unlashtirdilar. Bu jarayonda ekologik tarbiya ham yangicha mazmun bilan talqin etildi. Jadid ma'rifatparvarligining eng yirik namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Munavvar Qori Abdurashidxonovlardir.

Maxmudxo'ja Bexbuldiy 1875 yil 19 yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlogida ruxoniy oilasida dunyoga keladi. Yoshligidan boshlab eski usuldagagi maktab va madrasalarda o'qiydi. O'nlab ilmiy risolalar, darsliklar, maqolalar yozdi, qo'llanmalar chop ettirdi.

M.Behbuldiy o'z asarlarida tabiiy fanlarni o'qitish bilan bolada inson va tabiatga nisbatan mehr uyg'otish mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Bu borada ayniqsa u geografiya fanini izchil o'qitishni yoqlab, 1906 yili bu fandan "Kitobi muntaxabi jug'rafiyai umumiy" kitobini chop ettirdi. Muallif ushbu kitobda quyidagi ma'lumotlarni beradi:

- 1."Jug'rofiya (geografiya) deb er va tuproqni bayon qilaturg'on ilmni ataydur... Uning shunday turlari bor: Er shakli, uning osmon bilan munosabati, osmondag'i narsalar bilan nisbati va xarakatini "jug'rofiyayi riyoziy"(astronomik geografiya), Erning xosiyati, tufroqning past-balandligi, giyohlar, konlar, tog', daryo, ko'l, mijoz va havoni "jug'rofiyayi tabiiy"(tabiiy geografiya) o'rganadi. Shuningdek, "jug'rofiya tarixiy"(tarixiy geografiya), "jugrofiyayi siyosiy"(siyosiy geografiya), "jug'rofiyayi umroniy"(Aholi geografiyasi)" kabi sohalar ham bor.
- 2."Jug'rofiya (geografiya) eramizdan avvalgi yillarda Misrda paydo bulgan va yurtimiz Turkistonga eramizdan avvalgi IV aerda kirib keldi".
- 3."Jug'rofiya (geografiya) ilmi rivojiga yurtdoshlarimiz Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulugbek kabilar munosib hissa qo'shganlar".
4. Jug'rofiyani (geografiya)ni o'rganish dunyoni va insoniyatni, madaniyatni bilishga olib keladi.

5. Er tomonlari to'rttadir: janub, shimol, sharq, g'arb. U xaritaga tushurilgan. Er yuzi iklimi ham turlicha.
6. Er yuzida yuzlab mamlakatlar bor va u joylarda turli xalklar o'z madaniyatlariga ko'ra yashaydilar.

Ma'lum buladiki, M.Behbudiy umumiyligi geografiyadan sabok berish bilan kishining ekologik madaniyatini shakllantirish mumkin, degan xulosaga kelgan. Bexbudiy "Padarkush" asarida: "Bizlarning xonavayron...bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaxolatdir, bevatanlik, darbadarlik, arosat, faqirlik zarurat va xorlikdir. Bularning hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir", - deb yozadi. Behbudiy 1919 yil 25 martda Shaxrisabzda qatl etildi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov Toshkent shaxrida ziyoli oilada tug'ilgan. Munavvar Qori boshlang'ich ta'limni uyda onasi Xosiyatxon otindan oldi, so'ngra Toshkent, Buxoro madrasalarida, keyinchalik Turkiyada o'qiydi. U arab, fors va rus tillarini o'rghanadi. Kur'oni yoddan bilgani uchun "Qori" nomini olgan. Toshkent jadidchilik xarakatining rahnomasi, o'nlab darsliklar, qo'llanmalar muallifi. O'z hisobidan yangi usuldagagi maktablar ochgan. 1918 yili Toshkent dorulfunini (xozirgi UzMU) tashkil qilgan. U "Taraqqiy", "Osiyo" kabi gazetalarni nashr qildirdi, "Er yuzi" (geografiyaga oid) darsligini tuzdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov o'z asarlarida bolalar tarbiyasida dunyoviylikni ustuvor qo'yadi. Uning pedagogik asarlarida ekologik tarbiyani quyidagi asoslarda tashkil qilish g'oyasi ilgari suriladi:

- tabiat va hayvonot olamidan saboq beruvchi hikoyatlarni ko'p o'qish;
- tabiat, hayvonot (zoologiya), nabobot, botanika va jug'rofiya (geografiya) ilmlarni chuqur o'rGANISH;
- inson salomatligini ta'minlovchi ilmlardan xabardor bo'lish.

Munavvar Qori Abdurashidxonov o'zbek ta'lim-tarbiya tarixida ilk bor Mehnat darslarini o'qitish va tabiatni kuzatish lozimligini ta'kidlaydi. Buning uchun u ekskursiya darslaridan foydalanishni ilgari suradi. Malum bo'ladiki, Munavvar Qori ekologik tarbiyani amalga oshirish uchun o'quvchilarni tabiat haqidagi ma'lumotlar bilan qurollantirish tarafdiridir.

2-BOB O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING

PEDOGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1. MAKtablarda TABiatni MUXOFaza KiliSh EKOLOGIK

TARBiYaNing MUHIM ShARTI SIFATIDA (o'quv mashg'lotlari misolida).

Tabiatni muxofaza kilish va tabiiy resurslardan okilona foydalanish goyalarini keng axoli ommasi yaxshi tushunib etgandagina bu ishni muvaffakiyatli amalga oshirish mumkin. Shu sababli tabiatni muxofaza kilish xakidagi bilimlarni yoyish xozirgi vaktning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifani bajarishda albatta umumta'lim maktablarining roli benixoya katta. Binobarin, ukuvchilarni tabiatni sevish, unga xurmat bilan karash, uni e'zozlash, tabiatni toza tutish, tabiiy resurslarni extiyot kilish ruxida tarbiyalash xozirgi maktabning asosiy burchidir.

Maktablarda tabiatni muxofaza kilish va tabiiy resurslardan okilona foydalanishga oid ta'lim-tarbiya ishlari ukuvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajalariga moslab olib borilishi zarur.

Xozirgi vaktida tabiatni muxofaza kilish masalasining keng mikyosda ekanligi va axamiyatidan kelib chikib, maktablarda bu soxadagi ta'lim-tarbiya ishlari fajlat biologiya va geografiya ukituvchilari vazifasi bulmay, butun pedagogika kollektivi ishiga aylandi. Tabiatni muxofaza kilish masalalari maktabdagi kupchilik fanlar programmasiga kiritildi. Endilikda maktab ukuvchilarining tabiatni muxofaza kilish amaliy ishlarida katnashishlariga ularning fakat foydali vakt utkazish maksadida kilinadigan tadbir sifatida emas, balki maktabda amalga oshiriladigan vatanparvarlik tarbiya sistemasining tarkibiy kismi sifatida karash kerak. Chunki xozirgi maktab tabiatga nisbatan yangicha munosabatda buladigan kishini ona tabiatdan tejab-tergab foydalanadigan xujayinni tarbiyalab etishtirishi lozim. Xar bir Uzbekiston fukarosi tabiat xakida etarli bilimga ega bulishi kerak, tabiiy muxitni muxofaza kilishning va tabiiy resurslardan okilona foydalanishning zarurligini tushunishi va tabiatga nisbatan jonkuyarlik munosabatda bulishi lozim. Maktablarning tabiatni muxofaza kilishga oid ta'lim-tarbiya ishlari yoshlarda tabiatga nisbatan mexr-muxabbat munosabatda bulishni shakllantirishga karatilgandir.

Maktablarda tabiatni muxofaza kilishni ukitishda kuzda tutilgan maksadlar kuyidagilar: ukuvchilarga inson xayotida tabiatning kup tomonlama axamiyatga ega

ekanini kursatish, ularda tabiatga nisbatan muxabbat va extiyotkorlik bilan munosabatda bulishini tarbiyalash, tabiiy resurslardan okilona foydalanishning ilmiy va tabiatni muxofaza kilish asoslari xakida tushuncha berish, tabiatni muxofaza kilish ishida katnashish kunikmasini xosil kilish.

Kursatilgan bu maksadlarga erishish uchun darsda utiladigan dastur materiallaridan tashkari, ukuvchilarni ekskursiyalarda, turistik yurishlarda, ulkashunoslik ishlarida, tabiat bilan bevosita tanishishlaridan xam foydalanish lozim.

Maktabda tabiatni muxofaza kilishni ukitishda kuyidagi eng muxim ilmiy-pedagogik printsiplar dikkat markazida bulishi kerak: tabiatning bir butunligi va jamiyat bilan uzaro bir-biriga ta'sir etib turishi; tabiatning inson uchun moddiy va ma'naviy boyligining asosi ekanligi; tabiatning insonga ma'naviy estetik ta'sir kursatishi; tabiatni muxofaza kilishga ulkashunoslik nuktai nazaridan yondashish.

Tabiatni urganish va uni muxofaza kilish xakida bilim berishda ulkashunoslik nuktai nazaridan yondashish muxim axamiyatga ega. Tabiatni urganish, sevish va muxofaza kilishni uz ulkasidan boshlamok kerak. Maktab ukuvchilarga uz ulkasi tabiatini bilib olishda, uning guzalliklaridan estetik zavklanishda, axoli xujalik faoliyatining tabiiy sharoitga bogliъ ekanligini tushunishda, ulka tabiatini muxofaza kilishda bevosita ishtirok etishda yordam berishi kerak. Tabiat bilan jamiyat urtasidagi deyarli barcha uzaro alokalar xar bir ulkaning konkret sharoitida uz aksini topadi. Ukuvchilarning tabiatni muxofaza kilish xakidagi konkret bilimlarini chukurlashtirish uchun xar bir ukuv predmetiga uziga mos ulkashunoslik materiallarini kushish kerak.

Tabiatni muxofaza kilish bilim asoslarini egallahda ukuvchilarning bu ishda amaliy ishtirok etishlari juda muximdir. Chunki, amaliy ish bilan birga olib borilmagan bilim mustaxkam bilim bulmaydi. Ukuvchilar tabiatni muxofaza kilishda amaliy ishtirok etganlaridagina tabiatni muxofaza kilish yuzasidan zaruriy bilim va kunikmaga ega buladilar.

Ukuvchilarga tabiatni muxofaza kilish va tabiiy resurslardan okilona foydalanish xakidagi bilimlar sinfda, sinfdan tashkarida va maktabdan tashkarida xamda bolalarning aktiv amaliy faoliyati jarayonida beriladi. Bunda sinfdagi ishlar asosiy va eng muxim xisoblanadi, chunki u ma'lum sistema buyicha berilib, butun ukuvchilarni kamrab oladi va xamma ukuv yillari davomida sistemali ravishda olib boriladi. Sinfdan tashkaridagi

ishlarda ukuvchilarning bir kismi katnashadi va kupincha muttasil olib borilmaydi. Sinfdag'i ishlar jarayonida olingan bilimlar ukuvchilarga sinfdan va mакtabdan tashkaridagi tadbirlarning axamiyatini yaxshirok anglab olishga yordam beradi va ularning tarbiyaviy kimmatini oshiradi.

Ayniksa, sungi yillarda maktablarda va mакtabdan tashkari ta'lim buyicha tashkil kilingan xar xil tugarklarda, xatto, maxallalar va turli toifa jamoalarida xam ekologik mashgulotlar, suxbatlar utkazish, turli tadbirlarni amalga oshirish ishlariga xam e'tibor kuchaytirilgani suzsiz muxim axamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya samarasi yukori darajada bulishi uchun bir kator masalalarga e'tibor karatilishini talab kiladi. Ta'lim-tarbiyaga, avvalambor, tinglovchilar toifasi, ularning bilim darajasi, saviyalari, ayniksa, ukuvchilar yoshi, psixologiyasi va boshka kursatgich xolatlaridan kelib chikkan xolda yondoshish zarur. Mavzularni tanlash va ular bayonida bunga aloxida e'tibor karatilmogi maksadga muvofik.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, ekologik axborotlar anik dalillar, kuprok kurgazmali kurollar asosida, mumkin kadar zamonaviy texnika vositalarida etkazilsa, samarasi yukori darajada bulishi mukarrar. Maktabdan tashkari utkazilgan turli tugarklar mashguloti ochik tabiatda, ekologiya va atrof-muxitni muxofaza kilish nuktai nazaridan e'tiborli joylarda bulishi, xayvonot va botanika boglariga sayoxatlar uyushtirilishi, axlatlar tashlanadigan xamda tashlandik zovur, kul va kanallar xolatini taxlil kilinishi xam maksadga muvofik xisoblanadi. Iloji bulganda tinglovchilar iflos okavalar, ishlab chikarish chikitlarini uz kuzi bilan kurishi ular ongida atrof-muxit muxofazasi bilan boglik tadbirlar zaruriyati tushunchalari singishida kumak beradi. Xullas, xar bir nazariy va amaliy ekologik mashgulot yukori darajada va ta'sirchan bulishi kerak.

Aynan yukorida aytilganidek tarzda ta'lim tarbiya ishlari amalga oshirilsa, bizning fikrimizcha kuyida bir kator muxim vazifalar bajarilishi mukarrar. Bular:


- kishilar ongida eng zarur ekologik tushunchalar ya'ni tabiiy atrof-muxitlardagi barcha mavjudotlarning bir-biriga nisbatan bevosita boglikligi, ular urtasida tabiatan uygunlik xukm surishi xususida muxim tushuncha va ishonch xosil kilish;
- tabiatga, atrof-muxitga, ular tarkibidagi barcha mavjudotlarga nisbatan nixoyatda okilona munosabatda bulish, tejamkorlik bilan ulardan foydalanish zaruratini

- kishilar ongiga singdirish va chukur ekologik taffakkur eta bilishni shakllantirish;
- atrof-muxit va boshka xayotiy omillarni kelajak avlodlarga etkazishda ekologiya nuktai-nazaridan idrok etish kobilyatini odamlarda paydo kildirish;
 - etarli darajada ekologik ong va tafakkur soxibi bulgan xar bir kishi tabiatni sevish, atrof-muxitni muxofaza kilish, barcha tabiiy maxsulot, kazilma boylik va boshka omillardan tejamkorlik bilan foydalanish jarayonlari, xamda atrof-muxit muxofazasi bilan boglik amaliy tadbirlarda faol katnashishi mukarrar;
 - butun dunyo barkaror rivojlanish kontseptsiyasidan kelib chikkan xolda, mamlakatimizda olib borilayotgan ekologik ta'lim tizimini kaytadan taxlil kilish va tegishli uslubiy kullanmalar yaratish zarur.

Ukvuchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash asosan dars, darsdan va sinfdan tashkari mashgulotlarda amalga oshiriladi. Asosan ekologik mazmundagi darslarda ekologik tarbiya madaniyati shakllantirib boriladi.

DARS JARAYONIDA EKOLOGIK TARBIYAGAOID TUSHUNCHALARINI

ShAKLLANTIRISH MODELI



Sinfdan tashkari mashgulotlar: tugaraklarda, utkir zexnlilar mushoirasida, kechalarda, konferentsiyalarda, biologiya xaftaligi yoki oyligida, ijtimoiy foydali mexnat va ekskursiyalar orkali ekologik tarbiya berib boriladi.

Ukuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda noan'anaviy dars metodlaridan foydalanish muxim urin tutadi. Bu darslarda ukuvchilarning ekologiya xakida mustakil ukishi, mustakil fikrashi, xamkorlikda ishlashi, ishbop, rolli uyinlar tufayli ekologik muammolarni xal kilish, fikri, goyalari, usullarini ishlab chikishi, taklif kilishi mumkin. Biz zoologiya kursining «Xayvonot dunyosini muxofaza kilish» mavzusini utganda noan'anaviy dars metodlaridan «O`yin texnologoyalari» (rolli o`yinlar) yordamida ekologik ta'limni berishga xarakat kilamiz.

I Dars mavzusi: Xayvonot dunyosini muxofaza kilish.

II Dars uslubi: Ekologik sud (Rolli uyin)

III Dars maksadi: ukuvchilarda xayvonot dunyosini muxofaza kilish, «Kizil kitob» orkali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish.

IV Dars jixozi: Xayvonlarning rasmi bor tablitsalar, rasmlar, xayvonlar tulumlar, kushlarning chuchelolari, suda kastyumi, maslaxatchilar kastyumi.

V Dars natijasi:

1. Odam faoliyatining xayvonlarga ta'siri kanday?

2. Foydali, noyob va yukolib borayotgan xayvonlarni muxofaza kilish.

3. Xayvonot dunyosini muxofaza kilish tadbirlari tugrisida dars oxirida xulosa kilib, gapirib, tushuntirib beradi.

VI Darsning tafsiloti:

Boshkaruvchi ukituvchi: Xurmatli ukuvchilar mana biz 7-sinfda yil davomida xayvonot olami bilan tanishib bordik. Er yuzasida xayvonot olamining 2,5 mln.dan ortik turi bulib, shularning 1,4mln.dan kuprogi xasharotlarga tugri keladi. Biz xayvonot olamining turli-tumanligini urganib, ularning axamiyatini bilib oldik. Lekin afsuski, er yuzasida jumladan Uzbekistonimiz xududida xam kungina xayvonlar yukolib ketgan, kuplari kamayib bormokda. Xayvonot olamining kamayib borishida insoning ta'siri juda katta. Kelinglar biz bugun suzni xayvonot olamiga bersak. Ular nima deyishadi? Ular bugun inson ustidan sud utkazmokchi. Sud jarayoni boshlandi.

Sud raisi: - Yulbars. Xurmatli Ukuvchilar bilasizmi Uzbekistonimizda yulbarslar yukotilgan, lekin er yuzasida kam kolgan. Xayvonot olamini yulbarlarsiz tasavvur kilib bulmaydi.

Bosh ayblovchi: - Gepard. Er yuzida gepardlar kam kolgan. Uzbekistonda kirilib ketgan.

Advokat: - Saygok

Xamma uz joyiga utiradi uyin faoliyati boshlanadi.

Sudya: - Dikkat sud jarayoni boshlandi. Suz bosh ayblovchiga

Gepard: - Men er yuzida juda kam kolgan, Uzbekistonda kirilib ketganman. Men juda xavotirdaman. Agar insonning ta'siri shunday ketsa, er yuzidagi kuplab xayvonlarni kirib yuboradi. Shu kungacha umurtkali ogaynilarimizning 600 turi yuk bulib ketdi. 1600-1975 yilgacha sut emizuvchilarning 63 turi va 44 kenja turi yukotilgan. Er yuzida xar yili 1-10 gacha xayvonlar va 1 ta usimlik turi yukolib ketmokda. Bunda insonning aybi juda katta. Xozirgi kunda er yuzida tur, kabutarlar, dengiz sigiri yukotilgan. Uzbekistonning uzida 63 ga yakin xayvon turi yukolish arafasida. Agar inson xayvonot olamini saklamas ekan, juda katta talofatga uchraydi. Xa, inson, uylab kuring.

Yulbars: - Xurmatli Gepard, sizningcha inson kanday jazoga loyik?

Gepard: - Inson uzini-uzi jazolamokda va jazolashda davom etmokda.

Yulbars: - Suz endi ximoyachiga.

Saygok: - Men, ayblovchining xolatini yaxshi tushunaman, u kishiga gapirish kiyin insoning aybi katta, lekin insonni xurmatlash kerak.

Gepard: - Nima-nima xurmatlash kerak? Nima uchun?

Saygok: - Chunki inson xayvonlarni fakat kirish bilan emas, uni kuriklamokda. Axir inson xam shu tabiatda yashaydi-ku? unga xam xayvonlar kerak. Masalan uy xayvonlarini kim bokadi, unga kim gamxurlik kiladi? Inson.

Gepard: - Tuxta-tuxta. Inson uy xayvonlarini kuriklab, yovvoyi xayvonlarni kirishi kerakmi?

Saygok: - Yuk-yuk. Xozir dunyo buyicha va xar bir davlatning «Kizil kitobi» bor. Shu kitobga kamayib, yukolib borayotgan xayvonlarni kiritib, ular kuriklanadi. Masalan:

Uzbekistonda «Kizil kitob»ga kiritilgan usimlik va xayvonlarni ximoya kilish uchun 25 ta maxsus muxofazaga olingan tabiiy xududlar faoliyat kursatmokda. Ulardan 9 ta kurikxona, 2 ta milliy bog, 9 ta buyurtmaxonalar tashkil kilingan.

Biz saygoklarni ovlash 1919 yilda man kilingan. Orol dengizidagi «Borsa-kelmas» kurikxonasida kuriklab, kupaytirishdi. Xozir sonimiz 2 mln.dan oshdi. Lekin onda-sonda ovlab, xam turishadi.

Sudya: - Endi suzni ximoyachilarga va guvoxlarga beramiz.

Suz: guvox-suvga. Xamma tirik ekan suvsiz yashay olmaydi. Lekin dengiz-okean, daryo va kullarning suvlari ifloslanmokda. Ayniksa Evropa daryolari juda iflos. Dunyo okeani daryo suvlariga minglab tonnalab zararli moddalar tashlanmokda. Kuriklikda chuchuk suv tansik! Axir, bular xammasi insonga kerak-ku?

Suz: Guvox-xavoga. Xar yili xavoga 5mlrd tonna CO₂ chikariladi. yana oltingugurt, azotning zaxarli gazlari-chi? Azot katlami yupkalashgan, tuynuklar xam ochilgan. Er yuzidagi urmonlarning 40% i kirkib yuborilgan, lekin tiklanmagan. Kislorod mikdori kamayib bormokda. Yana kisloroddan xam kuplab ishlatishadi. Axir insonga xam O₂ kerak-ku?

Suz: Guvox-tuprokka. Xa, bizga juda kiyin. Xamma zararli moddalar, iflos suvlar bizga kelib tushadi. Tuprok shurlanib, zaxarlanib bormokda. Kuruklikning kup kismi shurlashmokda. Natijada usimlik, xayvonot, odamning uzi xam zaxarlanmokda.

Sudya: Suz ximoyachiga.

Gepard: Xa, yukoridagi xamma ma'lumotlar tushunarli. Lekin insonga xam toza suv, toza xavo, toza, unumdar tuprok kerak-ku? Xa, Inson xam kup narsani yukotdi. endi uni saklashga, kuriklashga xarakat kilmokda. Chunki, inson jamiyatni rivojlantirish uchun, texnika fanni rivojlantirib, tabiatga katta ta'sir utkazmokda. Inson fan- texnikasiz yashay olmaydi.

Sudya: Navbat guvox- Uzbekiston «Kizil kitobi»ga .

Uzbekistonda «Kizil kitob» 1-nashri 1984 yil nashr kilindi. Unga inson Uzbekiston xududidagi umurkalilarning 63 turini kiritdi. Bularga 22 tur-sut emizuvchilar, 31 turi-kushlar, 5 tur- sudralib yuruvchilar, 5 tur- baliklar.

Inson kamayib, yukolib borayotgan xayvonot, usimlik olamini kuriklamokda.

Sudya: Biz xamma guvoxlarni eshitdik. Endi inson bilan nima kilamiz.

Advokat: Barcha sud jarayonida suz aybdorlarga xam beriladi inson nima deydi?

Inson: Men sizlardan kechirim surayman. Uzimni oklamokchi xam emasman. Biz tabiat va jamiyat munosabatini tugri tuta olmayapmiz. Chunki birimiz kilgan ishni boshkamiz buzub kuymokdamiz. Shu tabiatda biz xam yashashimiz kerak.

Gepard: Men xam insonning tabiatga bunday munosabatini oklamokchi emasman. Lekin uning keyingi yillarda kilayotgan ishlari tabiatni kuriklashga karatilgan. M: Uzbekiston «Kizil kitobi»ga kupgina xayvonlar kiritilgan bulib, ularga koralaylak, lochin, sirtlon, tuvalok, okbovur, xongul, kulon, jayron, kirgovul, kuk sugur, kungir ayik, slovsin, koplon, ilvirs kiradi.

Sudya: Bu fikrlar tugri. Garchi men Uzbekistonda yuk bulsamda, dunyoning boshka erlarida inson meni kuriklamokda. Inson tufayligina men er yuzida yashab koldim.

Gepard: Insonlar xam suv, xavo, tuprok ifloslanishidan ozor chekmokda. kirilib yukumli kasalliklarga uchramokda.

Sudya: Xush, biz inson ustidan kanday xukm chikaramiz. (maslaxatlashadilar).


Ish yuzasidan xamma materiallarni kurib chikdik. Xayvonot olamining xar 5 turidan biri xavf ostida. Yukolgan 120 sut emizuvchilarning 47 tasi XX asrga tugri keladi. Usimliklarning 25000 turi, xayvonot olamining 600 dan ortik turi yukolish arafasida.

Karor: Insonlarda xam tuzatish kerak bulgan imkoniyatlar bor. Shu imkoniyatdan foydalansin, uz xatolarini tuzatsin. Agar shu xatolar yana takrorlansa, tuzatilmasa, inson uzini-uzi xalokatga maxkum etadi. Chunki, inson suvsiz, xavosiz, tuproksiz, usimlik va biz xayvonlarsiz yashay olmaydi.

2.2. O'quvchilarda ekologik ta'lif tarbiya berishda pedagogik texnologiyadan foydalananishning shart sharoitlari

O'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajada motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lган ongli extiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy normalarga mos xuquqining paydo bo'lishi tushuniladi. Mazkur tipdag'i faollilik xar doim ham vujudga kelmaydi. Faqat o'quvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va ularni pedagogik psixologik muhitini tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi. Ekologik tarbiya berishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish ijtimoiy psixologik muxitni vujudga keltirishni o'qitushi tomonidan

qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik texnologiya turlari quyidagi jadvalda keltirilgan. 1-jadval.



1-jadval. Pedagogik texnologiya turlari

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishi bilan birgalikda ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini taxlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, xamkorlikni vujudga keltirish kabi funktsiyalarini bajaradi. Biroq pedagogik texnologiyalarning funktsiyalari taqqoslanganda bu funktsiyalar bir xil darajada o'rinni egallamasligi ma'lum bo'ladi. Didaktik o'zin texnologiyasida etakchi o'yinlarni ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funktsiyalar ularga ilova bo'ladi. Muammoli ta'lim texnologiyasida aqliy faoliyat usullarini shakllantirish ijodiy faoliyatga yo'llash mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funktsiyalarini etakchi o'rinni egallaydi, qolgan funktsiyalar ularga go'yoki bo'linadi.

Shu asosda pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarni taxlil etish mumkin.

O'quv fanlari o'qituvchilari darsda o'rganiladigan mavzuning ta'lim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarini

xisobga olgan xolda qaysi texnologiyalardan foydalanishi ilmiy metodik asosda tanlangandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishiladi.

Didaktik o'yinli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Darslarda o'quvchilarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish. O'yin faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

2. Didaktik o'yinli darslarda qo'yiladigan talablar.

3. Didaktik o'yinlarning mazmuni va moxiyati.

4. Darslarni o'qitishda foydalilaniladigan didaktik o'yinli darslarning turlari.

5. Didaktik o'yinli darslarning texnologik xaritasi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayonini o'yinli faoliyati bilan uyg'unlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati quyidagi funktsiyalarni bajaradi.

1. O'yin xar doim shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishini ortiradi.

2. O'yin davomida shaxsning muloqatda kirishi komunikativ muloqat madaniyatini ortiradi.

3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi,bilimini va o'zligiga namoyon etishda imkon yaratadi.

4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engishga mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalari tarkib topadi.

5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq atvorini egallashi, kamchiliklarga barxam berish imkoniyatini yaratadi.

6. Shaxs strukturasiga tegishli o'zgarishlar kiritiladi, ya'ni ijobiy xislatlarni, fazilatlarni shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadiryatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy ma'naviy, madaniy qadryatlarni o'rGANISHGA e'tibor qaratiladi.

8. O'yin ishtirokchilarida zamonaviy muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

O'yin faoliyati o'zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

1. O'yin ishtirokchilari o'zining rollari, vazifalarini tankashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat ya'ni o'quvchilarining o'z faoliyatini taxlil va nazorat qilish, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o'z faoliyatidan ko'ngli to'lishi o'z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi.

2. Ijodiy jixat tarkib topadi. O'yin ishtirokchilari muammolarini xal etishda ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo'ladilar.

3. O'yin davomida musobaqa raqobat xamkorlik yordamida vujudga keladi. Shu asnoda his xayajonli vaziyat paydo bo'ladi. His xayajonli vaziyat oqibatida vujudga kelgan bilim ko'nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi

4. O'yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O'yin ishtirokchilariga ijtimoiy qoidalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

5. O'yin mazmunli borishi mantiqiy ketma-ketligi vaqt balansi va o'quvchilarining muammoli vaziyatlarni zudlik bilan xaal qilish mo'ljalini to'g'ri olishga o'rgatadi. Boshqa o'quv va mehnat faoliyati tarkibiga quyidagilar kiradi;

A) O'yining syujeti,

V) O'yin ishtirokchilari bajaradigan muayyan rollar, vazifalar.

S) Ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar.

D) Rol yoki shartli ravishdagi o'yin vositalaridan foydalanish.

E) O'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat muloqat kiradi.

O'quvchilarini bilish faoliyatining o'yin faoloyati bilan uyg'un holda tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi.

1. Didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlash,

2. Didaktik o'yin syujeti va ishtirokchilar faoliyatini loyixalash.

3. O'yindan ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash.

4. Didaktik o'yinni maqsadga muvofiq tashkil etish uning balansi va o'quvchilarining muayyan vaziyatlarini zudlik bilan hal etishda e'tiborni qaratish.

5. O'yin ishtirokchilarini rag'batlantirish.

6. Olingan natijalarni taxlil qilish.

7. Olingan natijalarga muvofiq holda o'yin strukturasi va borishiga tegishli o'zlashtirishlar kiritish.

Didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi funktsiyalar amalga oshiriladi:

- 1.Ta'lif tarbiya berish.
2. Shaxsni rivojlantirish.
- 3.O'quvchilarni ijod faoliyatiga yo'naltirish.
- 4.Bilimlarni nazorat va taxlil qilish.
5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo'naltirish.
6. O'quvchilarining muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

Ta'lif tarbiya jarayonida bu funktsiyalar majmua xolda amalga oshiriladi, lekin quyidagi o'r ganiladigan didaktik o'yin turlarida quyidagi funktsiyalar ustunlik qiladi. Qolgan funktsiyalar unga ilova bo'ladi, o'yin mashqlarda bilimlarni nazorat va taxlil qilish ustunlik qiladi. Qolgan funktsiyalar uni to'ldiradi.

O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi talablarga amal qilishi lozim:

- 1.Didaktik o'yinli darslar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiylarini tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqchad va vazifalarni xal qilishda qaratilgan bo'lishi.
2. Amaliyotdag'i va jamiyatdag'i muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilish,
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob ahloq normalariga mos kelishi.
4. O'yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi,
5. Mazkur darslarda didaktik printsiplarga amal qilishi eng kam vaqt sarflanishiga erishish kerak.

Didaktik o'yinli darslarni muvofiqligi avvalo o'quvchilarining mazkur faoliyatni tashkil etish va moxirlik bilan boshqarishga bog'liq. O'quvchilarining didaktik o'yingga tayyorgarlik ko'rishi faoliyatini quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Didaktik o'yin maqsadi, vazifasi, olib borilish tartibi, qoidalari bilan tanishish.
2. Didaktik o'yin maqsadi va vazifalaridan kelib chiqadigan muammoli vazifani anglash.

3. Muammoli vaziyatdan chiqishning eng samarali yo'llarini topish.
4. Xar bir o'quvchi o'zi bajariligshe lozim bo'lgan vazifalarni o'qituvchisidan kerakli yo'riqnomaga va ko'rsatmalar olish.
5. Turli bilim manbaalaridan foydalangan xolda muammmoli vaziyatni xal etishning optimal variantini tanlash.
6. Didaktik o'yin ishtirokchilari o'rtasida o'zaro xamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro nazorat vujudga kelishi lozim.

3-BOB. O'QUVChILARDA EKOLOGIK TARBIYa BERISHNING AMALIY ASOSLARI

3.1 O'quvchilarda ekologik tarbiya berishning tashkiliy-metodik asoslari.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida texnika oliy o’quv yurtlarida o’quv tarbiya jarayonini takomilashtirish, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ayniqsa, kasb-hunar kollejlarida ishlaydigan muhandis –pedagolarni yuqori kasbiy saviyada bo’lishi talab etiladi. Shuning uchun ham talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib u etuk mutaxassis shaxsini tarbiyalash bilan tavsiflanadi. Kasbiy madaniyatni shakllantirish bevosita ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma’naviy jihatdan rivojlangan demokratik va insonparvar jamiyatni rivojlantirish bilan bog’liqdir.

O’quvchilarda ekologik tarbiya berish vazifasi ob’ektiv shart-sharoitlar hamda aniq maqsadga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning dialektik birligi negizida tashkil etilib, u mavjud ob’ektiv shart-sharoitlar va samaradorlik darajalarini aniq belgilashni talab etadi. Ekologik tarbiya yo’nalishida o’quvchilar shaxsini tarbiyalashga qaratilgan ishlarni tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish yo’lida tashkil etilgan dastlabki xarakat - bu umumiy o’rta ta’lim uquvchilariga bilimlarni berish, ularda tabiat, hayot havfsizligi, inson va sqera xususidagi tushunchalarni hosil qilish bilan birga o’quvchilarni ma’naviy shakllantirish, olib borilayotgan mashg’ulotlar va tadbirlar mazmunini tahlil etish, o’quvchilarning ekologik madaniyat darajasini o’rganishdan iborat bo’ladi.

Ushbu talablar va xususiyatlardan kelib chiqib, biz tajriba-sinov ishlarini o’tkazish uchun tajriba-sinov maydonlari sifatida belgilangan Buxoro viloyat Peshku tumanidagi 1, 4, 12, 14, 32 - umumiy o’rta ta’lim maktablarida amaliy faoliyati tashkil etdik (bu maktablarda tajriba sinov ishlarini olib boruvchi su’bektlar tayinlandi. Bular 1-maktabdan, ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Xamidova Matlab; biologiya o’qituvchisi Azimova Saltanat, sinf rahbari Maxmudova Hursand; 4-maktab bo’yicha ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Boboev Xaydar, biologiya fani o’qituvchisi Hamidova Nozima, 14-maktab ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Muyassarov Bobir, biologiya fani o’qituvchisi Vahobova Kimyo, 12-maktab ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Rahmonov

Murod, biologiya fani o'qituvchisi Nazarova Zebiniso, 32-maktab ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari narzullaeva Zarina,biologiya fani o'qituvchisi Qayumova Farida).

Mazkur tajriba-sinov ishlari ishlab chiqilgan metodikamizning kuyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

- a) umumiyl o'rta ta'lif maktablarining o'quv o'quv jarayonida dars mashg'ulotlari va ularning mazmunini tahlil etish;
- b) maktablarning o'qituvchilari, sinf rahbarlari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar tashkil etish;
- v) o'quvchilar ishtirokida suhbatlar uyshtirish.

Maktablarda tashkil etilgan darslar jarayonini kuzatish, mazkur jarayonda o'quvchilarning, tabiatshunoslik, kimyo, biologiya, fizika fanlaridagi bilimlardan xabardor etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini o'rganishga qaratildi. VI – X sinf biologiya, kimyo, fizika fanlari o'quvchilari tomonidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning umumiyl rivojlanishini ta'minlash, ularning shaxsiy sifatlari hamda dunyoqarashlarini boyitib borish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma malakani hosil qilish kabi xolatlarni qaror toptirish ishiga alohida e'tibor berildi. VI – X sinflardagi o'quv fanlari yo'nalishidagi bilimlarning ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti va o'quvchilar kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati, o'quvchilar tomonidan ekologik bilimlarini o'rganish zaruriyati va shu kabi masalalarning doimiy maqsadga muvofiq ravishda to'liq amalga oshirilmaganligi aniqlandi. Umumta'lim maktablarida ekologik ta'limi va tarbiyasini muvafaqiyatli tashkil eta olish, orqali o'quvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash shart-sharoitlarini yaratish davr talablari darajasida deb bo'lmaydi.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish muammosining ijobiy echimini ta'minlashga nisbatan majmuaviy (kompleks) yondashuvning mavjud emasligi, o'quv fanlarining o'qituvchilarda fanlararo aloqadorlik va bog'liqlik xususiyatlaridan samarali usullaridan foydalana olish, shuningdek ekologik tarbiyasi madaniyatini shakllantirish borasidagi tajribaga to'liq ega emasliklari kabi xolatlar uchrab turadi. Yuqoridagilarni inobatga olib so'rovnomalar tashkil etdik. O'quvchilarga kuyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Ekologik madaniyati shakllangan o'quvchi deganda nimani tushunasiz?

2. Sizningcha, o'quvchilaringiz ekologik tarbiya olishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

3. Siz darslarda qanday ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalansiz?

4. O'qituvchining tabiat, inson salomatligi, tabiat ne'matlarini asrab avaylash, tabiatni iflos qilish masalalaridan yiroqligi o'quvchining ekologik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadimi? Qanday qilib?

5. "Ekologik madaniyati shakllangan o'quvchi", Siz uni qanday ta'riflagan bo'lur edingiz?

6. O'quvchining ekologik madaniyatini shakllantirish uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?

7. O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof muhitni muhofaza qilishga o'rgatishning kanday yo'llari, metodlari, usullari qulay xisoblanadi?

O'quvchilar berilgan savollardagi javoblarini tahlil qilib, shunday hulosaga keldik-ki o'quvchi-yoshlar bilan ekologik tarbiya to'g'risida har doim ham suhbatlar, maruzalar, amaliyot darslari olib borilmaydi. O'quvchilar bilan tarbiya soatlarida, yuqorida bo'lgan ko'rsatmalarga ko'ra tabiatni muhofaza qilish, tabiat ne'matlarini, ya'ni o'simliklar, daraxtlar va boshqalar to'g'risida g'amho'rlik qilish ishlarni bajaradilar. Aytish mumkinki o'quvchidarni ekologik tarbiyalashga yo'naltirish ishlari ya'ni ekologik tarbiyaning pedagogik jarayoni bugungi kun talabi darajasida emas.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarning ekologik tarbiyasiga oid muayyan ishlari amalga oshirildi. Ma'lum mavzular bo'yicha o'quvchilar bilan ommaviy, guruhli shaklda ishlari olib borildi. Jumladan, ekologik tarbiyaga oid, kyidagi mavzularda suhbatlar tashkil qilindi, "Tabiatni muhofaza qilish har kimning burchi", "O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash har bir o'qituvchining ma'suliyati", "Ta'lim va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o'quvchilarda ekologik tushunchalarni hosil qilish yo'llari" va hokazolar.

O'quvchi-yoshlarni ekologik madaniyatini oshirishda o'quv-tarbiya jarayonining o'rnini aniqlash, o'quvchilarning ekologik tarbiyasiga oid ishlarni yo'lga qo'yish, ayniqsa o'quvchilarning ekologik tushunchalarni qay darajada ekanligini aniqlash

maqsadida tajriba va nazorat guruhi o'quvchilariga qo'yidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- 1."Ekologiya" deganda nimani tushunamiz?
- 2.Hozirgi kunda insonning tabiatni muhofaza qilishi nimaga kerak?
3. "XXI asr" tabiatni asrash, undagi moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash va ko'paytirish nima uchun kerak?
- 4.Sizning ekologik madaniyatga ega bo'lisingiz, ya'ni tabiatni, hayvonlarni, qushlarni asrashingizga qanday narsalarga ijobiy va qanday narsalar salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz.
- 5."Tabiat, qushlar, hayvonlarni muhofaza qilish"ni qanday tushunasiz va unga qanday amal qilish kerak deb o'ylaysiz?
- 6."Ekologik madaniyat"ga ega bo'lgan inson qanday bo'lisi kerak deb o'ylasiz?
- 7.Sizning ekologik madaniyatga ega bo'lisingiz uchun quyidagilar qanday rol o'ynaydi deb xisoblaysiz?;
 - A)o'iladagi muhit va oila a'zolari.
 - B)maktabdagagi ta'lim-tarbiya?
 - V)badiiy sarlar o'qish?
 - G)Jismoniy tarbiya, sport va turli ma'rifiy tadbirlar:
 - D)Ommaviy axborot vositalari(radio, televidenie, kino)
 - J)Qarindoshlar, ko'cha. Maxalla.
 - Z)tengdoshlar va sinfdoshlar.
 - I)Bilolgiya, kimyo Yu geografiya, tarix fanlari.

A) Sinfdan va maktabdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari bo’yicha

direktor o’rinbosarlari uchun tavsiyalar:

- tabiatni asrash, ekologik tushunchalarni o’quvchi-yoshlar ngiga etkazish. Obodonlashtirish, tozalikka rioya qilish bo’yicha O’zbekiston Respublikasida chiqarilgan qarorlar, ko’rsatmalarni o’quvchilar o’rtasida keng muhokama qilish.
- umumiy o’rta maktablarning VI-X sinf o’quvchilarining ekologik tarbiyasini yanada kuchaytirish, buning uchun maktab joylashgan hududdagi ekologik madaniyatga ega bo’lgan, tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish, “Obod qishloq” dasturi doirasidagi ishlarni olib borish borasidagi faol oilalar, mahalla faollari, mutassadi kishilar bilan uchravshuvlar, suhbatlar, savol-javob soatlarini o’tkazish.
- milliy bayramlar, an'analar, atoqli davlat arboblarining faoliyatiga bag’ishlab o’tkaziladigan tadbirlarda tejamkorlik va obodonchilik ishlariiga maktab o’quvchilarini keng jalg qilish;
- o’quvchilarda milliy qadriyatlar, nafrat, jismoniy barkamollik tashkil qilish orqali o’z imkoniyatlarini to’la namoyon etib, tabiatni muhofaza qilishga ko’maklashishni yo’lga qo’yib, ularda ekologik madaniyatga havas va qiziqishni o’yg’otish;
- shaxsiy tomarrqalar, o’y xayvonlari bilim madaniy muomalada bo’lish, ularda ijtimoiy-madaniy hayotda o’rinli foydalanish his-tuyg’ularini o’yg’otish;
- o’quvchi-yoshlarni umummaktab miqyosida ijtimoiy-foydali mahnatga jalg qilish yordamida mehnatga muhabbat, tabiatga qiziqish, mahnat natijasidan fahrlanish, iftixor qilish hisini o’yg’otuvchi tadbirlar tashkil qilib, o’quvchilarni keng jalg qilish;

B)O’qituvchilar uchun tavsiyalar:

- tabiatni muhofaza qilish, tabiat ne’matlari to’g’risida ma’lumot beruvchi fanining mavzulari doirasida dars o’tadigan sinf o’quvchilariga ekologik tarbiyaga doir tushunchalar haqida ko’proq ma’lumot berishni amalga oshirish;
- tabiat, uning moddiy va ma’naviy boyliklari doirasida ma’lumot beruvchi, fan mazmuniga yaqin bo’lgan qo’shimcha ilmiy-ommabop, badiiy kitoblar o’qishni yo’lga qo’yish;

- nazariy va amaliy dars mashg'ulotlarida mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ekologiya, ekologik tarbiya, tabiatga, hayvonot olamiga doir ma'lumot beruvchi manbalar OAVlaridan keng foydalanib, o'quvchilar ma'lumot doirasini kengaytirish;

-o'zi dars beradigan sinflarda sinf rahbarlari bilan kelishgan xolda hamda ular bilan bilan hamkorlikda o'quvchilarning bilimi, intizomi, tarbiyasi, ma'naviy-ahloqiy va ekologik shakllanganligi yo'nalishida o'quv faoliyatini tashkil qilib ijtimoiy foydali mehnat o'quv mehnatining shakl, usul vositalaridan unumli foydalanish.

V)Sinf rahbarlari uchun tavsiyalar:

-o'quvchilarning ekologik tarbiyasini aniq loyihalash, buning uchun "sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasi " uchun o'quvchilarda ekologik tarbiyalashini oilada , maxalla, o'quv yurti hamkorlikni tashkil qilishni nazarga tutgan xolda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni keng muhokama qilish;

-o'quvchilarning aqliy, ahloqiy va jismoniy, hamda ekologik rivojlanishi xususida pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

-o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ularni erkin, mustaqil tashabbus bilan ishglashini yo'lga qo'yish, buning uchun o'quvchilarning qiziqishi oila vaziyati va shaxsiy faoliyatini yo'lga qo'yish;

-har bir o'quvchining tarbiyalanganlik darajasini aniqlab sinfda ekologik tarbiyaga oid ishlarni aniq rejalashtirish , o'quvchilarda ijodkorlik iqtidorini yuzaga chiqarish uchun tarbiya metodlaridan unumli foydalanish;

-sinf o'quvchilari, fan o'qituvchilari, maktab jamoa tashkilotlari xodimlari o'rtasida insonparvarlik, o'zaro hurmat, bir biriga e'tibor bilan qarash, o'z aro yordam munosabatlarini tarkib tobtirish, hamda ijtimoiy –foydali faoliyatga ijodiy yondashish ishlarini amalga oshirish;

- o'quvchilarda fuqarolik burchi, ma'suliyati, majburiyati hislarini rivojlantirish yordamida ularda tabiatga muxabbat ruhini o'yg'otish.

3.2-jadval

O'quvchi-yoshlarning ekologik tarbiyasining amalga oshirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining texnologik xaritasi.

Nº Bosqichlar	Asosiy vazifalar
1. Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi	1.Tajriba-sinov maydonlarini belgilash 2.Respondentlar sonini aniqlash 3.Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish 4.Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga mas'ul o'quvchilarini tayinlash, ularga tushunchalar berish. 5.Tajriba-sinov ishlarining basturini yaratish. 6.Tajriba-sinov ishlari loyixasini ishlab chiqish.
2.Shakllan-tiruvchi bosqich	1.O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishga oid maxsus medodikani ishlab chiqish. 2.Keng qo'lamma tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish. 3.Maxsus metodika samaradorligini dastlabki ekspertizadan o'tkazish 4.Maxsus metodika g'oyalalarini mazmunan boyitish.
3. Yakuniy bosqich	1.Maxsus metodika samaradorligini qayta ekspertizadan o'tkazish. 2.Tajriba-sinov ishlari yakunlarini umumlashtirish va tahlil etish 3.Olingan natijalarini matematik-statistik metod yordamida qayta tahlil etish. 4.Tadqiqot natijalariga ko'ra metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

3.2 O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda tajriba-sinov ishlari va uning samaradorlik darajasi.

Yuqoridagi masalalar tajriba-sinov ishlarimiz ob'ekti bo'lgan 1, 4, 2, 14. 32-chi maktablarning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosarlari, o'qituvchilar va sinf rahbarlari bilan suhbatlar, ma'ruzalar, trening mashg'ulotlari uyushtirildi. Tajriba-sinov ishining dastlabki bosqichida yuqoridagi kasb egalari bilan va o'quvchilarga tarqatilgan savol javob so'rovnomalaring natijalari tahlil qilinib, ularga o'quvchilarning ekologik ruhida tarbiyalash, ekologiyaga oid tushunchalar va ekologik madaniyat haqida ma'lumotlar berilib, bu fazilatlarni o'quvchilarda shakllantirishning shakl, metod, usullari tavsiya qilindi.

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan ob'ektlarda respondent-o'qituvchilar bilan pedagogik jarayonning quyidagi shakl, metod foydalanildi:

Shakllar:- Ma'ruza, seminar, suhbat, davra suhbat, amaliy trening;

Metodlar:- tushuntirish, og'zaki hikoya qilish, namoyish etish, interfaol metodlar;

Vositalar:- o'quv qo'llanmalari , ekologik tarbiya, tabiatni muhofaza qilish, tabitni sog'lomlashtirish to'g'risida ma'lumotlar beruvchi o'quv va texnik jixozlar, axborot texnologiyalari, (televizor, radio, kompyuter, audio va video magnifonlar).

Tajriba-sinov ishlarini dastlabki bosqichida ob'ektlarining mutasaddilari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari va o'quvchilarga) tajriba-sinof ishlarining anketa so'rovnomalari takroran taqdim qilindi. Bunda biz asosiy e'tiborni respondent-o'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarning shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida aniqladik:

1.O'quvchilar tomonidan ekologik tarbiya tushunchalarining lug'aviy ma'nosi va mazmunini tushunib etganligi .

2. O'quvchilarda ekologik tushunchalarni anglashga tabiatni muhofza qilishga bo'lgan ehtiyoj va hoxishning yuzaga kelganligi.

3.O'quvchilar tomonidan tuman ravnaqi , qishloq obodligi va maxalla farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy – foydali faoliyatga qiziqishning oshganligi.

4.O'quvchilarining tabiatni muhofaza qilish , maxallani obodonlashtirish sohasida alohida faollik ko'rsata olishlari.

Ushbu mezonlar asosida tajriba ishlari olib borilgan ob'ektlardagi o'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarning shakllanganlig darajasini ko'rsatishga imkon beruvchi yuqori , o'rta va past darajalar dinamikasida tahlil qilindi. Jumladan:

1.Yuqori daraja - ekologik tarbiyaga oid tushunchalarning lug'viy ma'nosi va mazmunini tushunib etadilar, ularda mazkur tushunchalarning shakllanishiga ehtiyoj va hoxish sezadilar, tuman ravnaqi, qishloq obodonligi va maxalla farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy foydali ishlarini amalga oshiishga xarakat qiladilar va bu borada faollik ko'rsatadilar.

2.O'rta daraja – ekologik madaniyat tushunchalarning lug'aviy ma'nosi va mazmutsn mohiyatini muayyan darajada anglaydlar, ularda mazkur tuyg'ularga ega bo'lish extiyoji va hoxishi yuzaga kelgan, tuman ravnaqi, qishloq obodonligi va maxalla farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan, ijtimoiy foydali ishlarini amalga oshiradilar biroq bu borada etarli darajada faollik ko'rsata olmaydilar.

3.Past daraja – ekologik madaniyat tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatini qisman anglaydilar , ularga bu tuyg'ularga ega bo'lish ehtiyoji va hoxishi uncha rivojlanmagan, tuman ravnaqi, qishloq obodonligi va maxalla farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy foydali ishlarga deyarli aralashmaydilar va faoliyat ko'rsatmaydilar.

3.2.1.–jadval . Tajriba guruhi o'quvchilarida ekologik tushunchalarning shakllanganlik darjasasi.

Nº1	M e z o n l a r	o'quvchi soni -24 nafar
		Yuqori 8 ta o'rta 10 ta past 6 ta

1.O'quvchilar tomonidan ekologik tarbiya
tushunchalarining lug'aviy ma'nosi va mazmunini
tushunib etganligi.

2.O'quvchilarda ekologik ttushunchalarni anglashga tabiatni muxofaza qilishga bo'lgan extiyoj va xoxishning yuzaga kelganligi.

3.o'quvchilar tomonidan tuman ravnaqi, qishlok obodligi va mahalla farovonligini ta'minlashga hizmat qiladigan ijtimoiy –foydali faoliyatga qiziqishning oshganligi.

4.O'quvchilarning tabiatni muhofaza qilish mahallani obodonlashtirish sohasida alohida faollik ko'rsata olishlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik tushunchalarini shakllantiruvchi pedagogik faoliyat, xususan, biologiya, kimyo, tabiatshunoslik fanlarining faoliyati xususidagi fikrlarimizni yana bir bora tahlil etish, dalilar bilan asoslanishini ta'minlash maqsadida ular o'rtasida o'quvchilar tomonidan yuqorida qayd etilgan savollarga kuyidagi mazmundagi javoblar olindi (o'quvchilar soni 24 nafar):

O'qituvchilarning deyarli barchasi o'quvchilarda ekologik tarbiya yo'nalishi fanlari oldida turgan asosiy vazifa – o'quvchilarga chuqr ekologik tarbiya, tabiat, xayot xafsizligi, inson va sfera va boshqa bilimlarini berish, ularda ekologik tarbiya madaniyatini sifatlarini shakllantirishdan iborat ekanligini to'g'ri ta'kidlaganlar. O'z fani bo'yicha ya'ni "o'quvchilarda ekologik tarbiya", puxta bilimga va pedagogik mahorat ekologik tarbiya sifatlariga ega bo'lган pedagog – o'qituvchilar tomonidan ekologik tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish ijtimoiy tarbiyada muayyan muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritish imkonini berishini ta'kidlaydilar. Shu bois asrlar davomida yosh avlod ekologik madaniyati ta'lim-tarbiyasida donishmand yoki muallim ustozlar alohida e'tibor bergenliklariga ham alohida urg'u berib o'tish lozim. O'quvchilarda ekologik tarbiya yo'nalishi fanlarining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash borasida bilimlardan bo'lg'usi tabiat, ekologik bilimdonlari etishtirishdir. Texnika va texnologiya, ilm-fan taraqqiyotining jadallahsuvi, ijtimoiy munosabatlar jarayoning

chuqurlashuvi va globallashuvi sharotida yosh avlodning ekologiyaning , tabiatning yaxshilanishi uchun kurashish asrab-avaylashning tub moxiyatini tushuntirish, salohiyatini o'stirish, yosh avlodning dunyoqarashini boyitish, tafakkur doirasini kengaytirish haqidagi fikrlarini bildirdilar.

Amalga oshirilga dastlabki tadqiqot doirasida dastlabki, asoslovchi taeriba-sinov ishlari xususida yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda kuyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1.O'quvchilarning ekologik tarbiya yo'nalishi ekologik madaniyatini shakllantirish g'oyalarini tarhib etish borasida muayyan imkoniyatlarga egadir. Ushbu imkoniyatlar o'quvchilarda ekologik tarbiya mazmunida aks etgan yagona maqsad tabiatni kelajak avlod uchun asrab avaylash, yosh avlodning ekologik tarbiyasini shakllantirish yo'naltirilgan deb xisoblaymiz.

2.Umumiy o'rta o'quv yurtlari faoliyati davomida nazariy va amaliy jihatdan o'rganilganda ayni vaqtida ekologik tarbiya yo'nalishi fanlarining mohiyatini talabalar ongiga singdirish, ularda ekologik tarbiya madaniyatini hosil qilish borasidagi imkoniyatlardan samarala foydalanmayotganligining guvohi bo'lamiz. Buning asosiy sabablari – ekologik ta'lim yo'nalishi yuzasidan tayyorlangan o'quv manbalari (o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va metodik tavsiyanomalar)ning etishmasligi, muayyan shart – sharoitlarning mavjud emasligi va xokazo holatlar majudligi aniqlandi.

3.Uquvchilarda ekologik tarbiya yo'nalishi fanlari o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonini kuzatish va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan so'rovnama natijalari oliy o'quv yurtlari amaliyotida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish, ekologik fanlari o'qituvchilari tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi, shuningdek ularning o'quqchilar o'rtasida ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish zaruriyatini kun tartibiga qo'yish .

O'quvchilarning ekologik tarbiya yo'nalishi fanlari inson kamolotining jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liqligi, shaxs madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va xayotiy haqiqatni anglab olishga, o'z shaxsiy xulosalariga ega bo'lishga yo'naltirish, nafaqat

mamlakatimizda, balki, jahon hamjamiyatida ro'y berayotgan ijtimoiy xodisalarni tushuna olish va faol ishtirokchisi bo'lishga tayyorlashi tufayli katta imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Bu imkoniyatlar o'quvchilarning ekologik tarbiya o'quv yurtdarida ekologik madaniyat xaqidagi nazariy va amaliy bilimar bilan qurollantirish, ekologik tarbiya haqida tushuncha va tamoyillar, bilim, ko'nikma va amalietlar xosil qilish xamda o'z faoliyatida namoyon bo'lishiga erishish natijasida mazkur muammoning samaradorligini aniqlash mumkin. Tajriba – sinov maydonchalar sifatida Peshku tumanidagi 1-maktab, 4-maktab, 12-maktab, 14-maktab, 32-maktab o'rta ta'lim umumiy ta'lim maktablari tanlandi. Tajriba maydonlari mazkur ta'lim muassasalarining rahbarlari va pedagogik jamoaning roziligi asosida tanlandi.

Mazkur maktablardan tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilarning soni quyidagi ko'rsatgichlarni tashkil etdi. (3.1-jadval);

3.1.-jadval

№	Tajriba-sinov ob'ektlari sifatida belgilangan maktab	Respondent-o'quvchilar soni		
		Jami	Nazorat	Tajriba
1.	Peshku tumani 1-maktab	84	44	40
2.	Peshku tumani 4-maktab	78	58	40
3.	Peshku tumani 12-maktab	62	31	34
4.	Peshku tumani 14-maktab	82	42	40
5.	Peshku tumani 32-maktab	91	49	42
Jami		397	224	196

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichda tashkil etildi. Har bir bosqichda aniq vazifalar bajarildi. Bosqichlar o'rtasida yagona birlik va o'zaro aloqadorlikning qaror topishiga alohida ahamiyat qaratildi. Ana shu tartibda tajriba-sinov ishlarning texnologik xaritasi tuzildi.

O'quvchi-yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish borasida faoliyatning amaliy asoslarini asoslashga imkon beruvchi taeriba-sinov ishlarining samarali kechishida ichki va tashqi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Amaliy faoliyat jarayonida tashqi va ichki omillari kuyidagilar ekanligi aniqlandi.

UMUMIY XULOSA.

Amalga oshirilgan nazariy va metodik ishlarimiz natijalariga asoslanib, kuyidagi xulosaga kelindi.

1.Umumiy o'rta ta'lim maktablari (VI-XsinF) o'quvchilari ekologik tarbiyasining shakl, metod, vositalarini ishlab chiqish uchun , dastlab, mavzuga oid nazariy ma'lumotlar o'rganib chiqildi. Bir qator pedagoglar, psixologlarning mazku muammo bo'yicha amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganildi va qishloq joylardagi mакtab o'quvchilarida ekologik tarbiya berishning zamonaviy pedagogik shakl, metod, vositalarini yaratish lozim degan xulosaga kelindi.

2.Bitiruv malakaviy ishi mavzusi asosida kuyidagi vazifalar hal qilindi:

-o'quvchilar ekologik muammosi o'rganildi;

-ekologik tarbiyaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib berildi va ekologik tarbiya muammosi o'rganildi.

-ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni dars mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlari jarayonida shakllantirishning samarali shakl va uslublari ishlab chiqildi.

-ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda mакtab, oila , maxalla hamkorligining tarbiyaviy ishlari tizimini ishlab chiqishga intilishlar amalga oshirildi.

-bitiruv malakaviy ishdagi nazariy va amaliy ma'lumotlarning natijalari tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlandi.

3..Pedagogik tajriba-sinov natijalari ekologik tarbiyaga oid tushunchalar mazmuni , o'quv –tarbiya jarayoning shakllari unda foydalanilgan metodlarning maqsadga muvofiqligi ko'rsatildi.

4.Pedagogik tajriba-sinov ishlari o'quvchilarda ekologik tarbiyaga oid darslarini va darsdan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish yo'llari aniqlandi.

5.Ekologik tarbiyaga oid o'rganilgan nazariy ma'lumotlar, o'tkazilgan amaliy ishlarning natijalari tajriba sinov ishlari jarayonida o'quvchilar uchun tushunarli, samarali mashg'ulotarning mazmuni bo'yicha kuyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

TAVSIYaLAR

-Umumta'lim maktablarining VI-Xsinflarida o'quvchilarida ekologik tarbiyaning shakllantirish samaradorligini takomillashtirish ;

Umumta'lim maktablari (VI-Xsinflar) da ekologik tarbiyani samarali tashkil etish borasi ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish tadbirlarini belgilash;

-ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni o'quvchilarda shakllantirishni tizimni yo'lga qo'yish;

-umumiyl o'rta ta'lim maktablarining biologiya , kimyo, geografiya, adabiyot, onatili fanlaridan o'quv mavzularida ekologik tarbiyaga oid matnlarini ajratib olish va ularni o'quvchilarning ekologik tarbiyasiga yo'naltirish;

-sinfdan tashqari tadbirlarda, yil bayramlarida o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlar mazmuni va yo'nalishini o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni anglashga yo'naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent, 1997.
4. Karimov. I "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch". T. «Uzbekiston» 2007 "Soglon avlod-bizning kelajagimiz" Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot 2000 y.
5. Mamashokirov S, «Ekologik barkarorlik omillari» Tafakkur jurnali, 2005 yil, 1- son.
6. Sharafiddinov O, «Ekologik madaniyat» Tafakkur jurnali 2005 yil.
7. Oltinov M, «Ekologiya va inson» Karang, «Uzbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikning ekologik muammolari» Navoiy 2006 yil.
8. M.Mamardashvili. M.K. Soznanie i tsivilizatsiya. «Priroda» jurnali 1988 yil, 11-son.
- 9.«Avesto» Toshkent, «Shark» 1999 yil.
10. Ibroxim Karimov. «Ma'naviyat, falsafa va xayot» Toshkent.,Fanlar Akademiyasi «Fan» 2001 yil.
11. P.S.Sultonov, B.P.Axmedov. «Ekologiya va atrof muxitni muxofaza kilish asoslari» Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi 2004 yil
12. K.Xaydarov, S.Nishonov. «Tabiatshunoslik asoslari» Toshkent. «Ukituvchi» 1992 yil
13. A.Ergashev, T.Ergashev. «Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza kilish» Toshkent. «Yangi asr avlod» 2005 yil
14. Homidov H. Tabobat ramzi aks etgan kitob G' Ishonch. 2001. 30 iyun
15. Hakimov N.H., Abirkulov Q.N., Islomov A, Atrof muhit muxofaza qilish. Darslik. TDIU. 2009.
16. Tolipov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi.: Nasaf, 2003.
17. Abdieva O. Ekologik faoliyatda ijodiy mustaqillik G'G'Xalq ta'limi j., 1997. 3-son. - 91–93 b.
18. Abdullaeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash G'G'Boshlang'ich ta'lim., 2002. 4-son. – 12–15 b.
19. Abdurahimov Q. Ekologik bilimlar amaliyotida G'G'Xalq ta'limi j., 2001. 2-son. – 99–103 b.
20. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
21. Ziyomuhhammadov B. Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat, 1997. - 104 b.
22. Madrahimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o'simliklar haqida. – T.: Mehnat, 1994. - 80 b.
23. Maxmudov R.Yu. Ekologiyadan ma'lumotnoma. – T.: Fan, 1997. – 39 b.

- 24.Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnama.– T.: G’ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.
- 25.Rasulov M. Markaziy Osiyo tabiatshunoslik fanlari tarixi. – T.:
- 26.Turdikulov E.O. O’quvchilarda umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirish.Toshkent, Sharq, 2011,- 159 ,b.